



PREZIDENT TA'LIM
MUASSASALARI
AGENTLIGI



TA'LIM MUASSASALARI PSIXOLOGLARI UCHUN USLUBIY QO'LLANMA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI



PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
TIZIMIDAGI TA'LIM MUASSASALARI

PSIXOLOGLARI

UCHUN USLUBIY QO'LLANMA

TOSHKENT – 2022

UO'K 159.9(072)
KBK 88.8
K25

Tuzuvchilar:

E.G.Karimova, M.Z.Shaxobiddinova, X.Sh.Nurmatova

Taqrizchilar:

D.M.Kenjayev, F.M.Zakirova

Muharrir S.M.Nazarov

Ushbu uslubiy qo'llanma Prezident ta'lif muassasalari agentligi tizimidagi ta'lif muassasalarida faoliyat yuritayotgan psixologlar uchun psixologik-tarbiyaviy va ma'rifat ishlarini tizimli tashkil qilish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish yuzasidan tayyorlandi.

Mazkur qo'llanma ta'lif va tarbiya jarayonlariga vatanparvarlik ruhi, milliy g'urur va iftixon, o'z xalqiga muhabbat va sadoqat, O'zbekiston tarixi, ilmiy-ijodiy hamda ma'naviy-ma'rifiy merosga hurmat, o'zlikni anglash, mehnatsevarlik va mas'uliyatlilik, qat'iyat va shijoatlilik g'oyalari singdirilishida, yosh avlod kamoli va istiqboli, ularning muammolarini hal qilishda, o'g'il-qizlarimiz qalbiga kirib borish va bolalar bilan do'stona muloqot o'rnatishda nafaqat psixologlar, balki ta'lif sohasining boshqa vakillari: ustoz-murabbiylar va tarbiyachi-pedagoglarga hamda ota-onalarga yaqin ko'makchi dastur sifatida xizmat qiladi, o'quvchilar bilan psixologik-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga uslubiy jihatdan yordam beradi.



Mazkur qo'llanmaning elektron PDF variantini
ushbu QR kod orqali yuklab olishingiz mumkin

Prezident ta'lif muassasalari agentligi huzuridagi Ilmiy-metodik kengashning 2022-yil 9-sentabrdagi 4-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.



*“Taraqqiyotning tamal toshi ham,
mamlakatni qudratli, millatni
buyuk qiladigan kuch ham
ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir”.*

SH.M. MIRZIYOYEV

KIRISH

Inson psixologiyasini tushunish, tahlil qilish, rivojlantirishga jiddiy e'tibor berish turli davrlarda, barcha davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelgan.

Maktab psixologi – yosh avlodni katta hayotga to'g'ri yo'naltirishda ota-onasi va o'qituvchi bilan barobar ahamiyatga ega shaxs. Murakkab davr – o'smirlikka qadam qo'yayotgan bola, shaxs sifatida shakllanayotgan o'smirning o'z olamidagi muammolariga yechim topishi uchun yordam berishda maktab psixologining roli katta.

Psixologik xizmat bolalarga ta'lif va tarbiya berishda ularning aqliy va shaxsiy imkoniyatlarini, boladagi mayjud qobiliyatlarni, qiziqishlarni hamda intilishlarni o'z vaqtida aniqlash va ulardan maksimal to'liq ravishda foydalanishni ta'minlab beradi.

Agentlik tizimidagi maktablarda o'quvchining qobiliyati, imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, yo'naltirish va rivojlantirishga ko'maklashish psixologning asosiy vazifalaridan biriga aylanadi.

Bu yerda psixolog ishining amaliy maqsadi o'quvchilarga ta'lif tarbiya berish mazmuni va metodlarini psixologiya fani nuqtai nazaridan baholash, bolalar taraqqiyoti to'g'risidagi ilmiy ma'lumotlarni hisobga olgan holda, ushbu mazmun va metodlarni mukammallashtirish bo'yicha tavsiyalar berish bilan bog'liq bo'ladi.

Psixologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, o'smirlik va o'spirinlik davrida kattalar bilan norasmiy ishonchga asoslangan muloqotga ehtiyoj paydo bo'ladi. Ko'pincha maktablarda o'quvchilarning kattalar va tengdoshlari bilan muomala muloqotini ta'minlaydigan psixologik sharoitlar to'liq yaratilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli o'quvchilarda maktabga, o'qishga salbiy, o'ziga, atrofdagi kishilarga nisbatan noto'g'ri munosabat shakllanadi. Bunday sharoitda shaxsning rivojlanishi va unga sifatli ta'lif berish mumkin bo'lmay qoladi. Shuning uchun ham ta'lif muassasalarida qulay psixologik muhit yaratish, o'quvchilar va kattalar o'rtasida qiziqarli muloqot uchun imkoniyat yaratishga amaliyotchi psixologlar, sinf rahbarlari, tarbiyachi-pedagoglar, o'qituvchilar va ota-onalar ham intilishlari lozim.

Mazkur uslubiy qo'llanma ta'lif muassasalarini psixologlari faoliyatini tashkil qilish, takomillashtirish hamda ularning kasbiy psixologik faoliyati samarasini oshirishni nazarda tutadi.







TA'LIM MUASSASASI PSIXOLOGINING PSIXODIAGNOSTIKA ISHLARI

Mamlakatimizning ertangi kuni va istiqboli yoshlar qo'lida. Bugungi kunda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatda ta'lif muassasasi psixologlarining oldida turgan eng katta vazifalardan biri – o'quvchilarni ona yurtga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida, vatanparvar qilib tarbiyalash, ularning diqqat-e'tiborini ta'lif-tarbiya jarayoniga to'g'ri va samarali yo'naltirishdan iboratdir.

Psixodiagnostika - amaliy psixologning asosiy va muhim faoliyat yo'nalishlaridan biri bo'lib, psixodiagnostik vositalar yordamida shaxsga psixologik tashxis qo'yish hisoblanadi.

Psixolog faoliyati yo'nalishlari:



Ta'lif muassasasida psixodiagnostika - **psixodiagnostik tadqiqotlar** asosida o'quvchilarning o'qishi davomida **psixologik-pedagogik** jihatdan chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning individual-psixologik xususiyatlarini, **ta'lif tarbiyadagi nuqsonlarning** sabablarini **aniqlashga** mo'ljallangan. Diagnostik ishlar guruh yoki individual tarzda o'tkazilishi mumkin.

Bu asnoda **amaliy psixolog** quyidagi **vazifalarni** bajaradi:



o'qituvchilar va o'quvchilarni psixologik tekshiruvdan o'tkazadi, ularning kasbiy yaroqligini diagnostika qiladi, ularning shaxs xislatlari, irodaviy sifatlari, his-tuyg'ulari, o'zini-o'zi boshqarish imkoniyati, intellektual darajasini tekshiradi;

o'quvchilarda uchraydigan o'quv malakalari va ko'nikmalarini egallashdagi nuqsonlar, xulq-atvoridagi kamchiliklar, intellektual taraqqiyot va shaxs fazilatlaridagi buzilishlar sabablarini diagnostika qiladi;

o'quvchilarning guruhdagи shaxslararo munosabatlari xususiyatlarini tekshiradi;

boshqa soha mutaxassislari bilan birgalikda o'quvchining psixik rivojlanishidagi nuqsonlar xilma-xilligini hisobga olgan holda differensial diagnostikani amalga oshiradi

pedagog-psixologning harakatlari o'quvchilarni ko'proq orzu qilishga, ko'proq ma'lumot olishga, ko'proq narsani bajarishga va ko'proq bilishga ilhomlantirishi kerak.

Ta'lrim muassasasi psixologi ushbu yo'nalishdagi ishlarni matabga qabul qilingan sinf o'quvchilarining ijtimoiy-psixologik pasportini tuzish bilan boshlaydi. Ijtimoiy psixologik pasport o'z ichiga o'quvchi haqidagi umumiy ma'lumotlar bilan birgalikda, uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni ham qamrab oladi.

O'quvchi ijtimoiy-psixologik pasportining namunaviy shakli quyidagicha bo'lishi mumkin:

O'QUVCHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK PASPORTI

- 1.Ismi-sharifi _____
- 2.Sinfi _____
- 3.Tavallud sanasi (y/o/k) _____
- 4.Doimiy yashash manzili _____

5.Oilaviy ahvoli (*yaxshi/kam ta'minlangan/ijtimoiy himoyaga muxtoj/onasi bn yashaydi/otasi bn yashaydi/qarindoshlari bn yashaydi*)

Oila a'zolari (*ota-onasi va oila a'zolari haqida ma'lumot*)
Otasi: _____

Onasi: _____

Aka-uka, opa-sigillar:

6.Yashash sharoiti (*ota-onasi bilan, onasi bilan, otasi bilan, bobo, buvisi bilan yashaydi*)

7.Salomatligi to'g'risida ma'lumotlar (*tug'ma/surunkali kasalligi bor/ nogironligi bor*):

8.Fanlarni o'zlashtirishi:
9.Xarakterining asosiy xususiyatlari (*muloqotining xususiyatlari, qobiliyatları, o'z-o'zini baholashi, ehtiyoj va mayllari sohasi*)

10.Oilaviy munosabatlar xususiyatlari (*ijobiy-ijtimoiy, muammoli, krizisli*)
Izoh _____

11.Sinfdoshlari bilan o'zaro munosabati (*kirishimli, liderlik sifatlari, muloqot doirasi tor*)

12.Profilaktika va korreksiya uchun tavsiyalar

Sinf rahbari imzosi va sana _____

Ta'lrim muassasasi psixologi psixodiagnostik ishlarni amalga oshirishda formallahsgan va kam formallahsgan metodikalardan foydalanishi mumkin. Formallahsgan metodikalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- testlar;
- so'rovnomalari;
- proyektiv texnika metodlari;
- psixofiziologik metodikalar.

Ushbu metodikalar nisbatan qisqa vaqt ichida diagnostik axborotni qo'lga kiritish hamda individlarni o'zaro miqdor va sifat jihatdan taqqoslash imkoniga ega.


Kam formallahsgan metodikalarga:

- kuzatish;
- suhbat;
- faoliyat mahsulini tahlil qilishni kiritish mumkin.

Mazkur metodikalar sinaluvchi haqida qimmatli ma'lumotlarni qo'lga kiritish imkonini beradi. Shuni ta'kidlash va inobatga olish joizki, kam formallahsgan metodikalarni o'tkazish katta mehnatni talab etadi va ko'p jihatdan psixologning tayyorgarligi va professional tajribasiga asoslanadi. Psixologik suhbat, kuzatuvlarning yuksak madaniy darajada o'tkazilishi tekshiruv natijalarini tasodifiy omillar ta'siridan saqlab qolishi mumkin.

Kam formallahsgan diagnostik metodikalarni formallahsgan metodikalarga qarshi qo'yish mumkin emas. Odatda, ular o'zaro bir-birini to'ldiradi. To'laqonli diagnostik tadqiqotda ikkala turdag'i metodikalarni uyg'unlashgan holda qo'llash zarur. Masalan, test yordamida ma'lumot to'plashda avval sinaluvchi bilan tanishish (*tarjima holi, moyilliklari, faoliyat motivatsiyasi haqida axborot to'plash*) bosqichi o'tkaziladi. Bunda **intervyu, suhbat, kuzatuvdan** foydalaniladi.

O'quvchilarning umumiyligi va maxsus (*matematik, texnik, ijodiy va h.*) **qobiliyatlarini psixologik diagnostika** qilish uchun "**Differensial diagnostik so'rovnomasi**", "**Qiziqishlar xaritasi**" metodik hamda va **o'quv motivlarini aniqlashga** qaratilgan metodikalardan foydalanishi mumkin.



Timoti Frensis Liri
amerikalik yozuvchi, psixolog

O'quvchilar va pedagogik jamoalarda yuz beradigan ijtimoiy jarayonlarning psixologik diagnostikasi uchun shaxslararo munosabatlarni o'rGANISHGA qaratilgan turli metodik ta'lilotlar, jumladan, "**Sotsiometriya**", T.Lirining "**Shaxslararo munosabatlarni o'rGANISH**" metodikasidan, K.Tomasning "**Shaxsning nizoli vaziyatdagi xulq uslubini aniqlash**" so'rovnomasidan, shaxsning kommunikativ qobiliyatlarini o'rGANISH uchun "**Shaxsning muloqotchanlik va tashkilotchilik xususiyatlarini aniqlash**" metodikasi, "**Odamlarga bo'lgan munosabatlarni aniqlash**" metodikalari tavsiya etiladi.




Donald Tomas Kempbell
amerikalik psixolog, sotsiolog va
faylasuf.

O'quvchilar o'rtasidagi addiksiya va deviatsiyalar diagnostikasi uchun A.Bass va I.Darkning "**Agressiya shakllari va uning ko'rsatkichlarini diagnostika qilish**" metodikasi, Nerv-psixik adaptatsiyani o'rganish testi, A.N.Volkova tomonidan taklif etilgan "**Shaxsdagi suitsidga moyillik xavfini aniqlashga ko'mak beruvchi prognostik jadval**" metodikasini, D.V.Jelatelevning "**Shaxsning hayotiy mazmunini o'rganish**" metodikasi, L.V.Shutov, A.V.Lyashchukning "**Ma'naviy-ruhiy inqiroz**" metodikasi qo'llanilishi mumkin.

Bundan tashqari, psixolog o'tiladigan trening bo'yicha ko'proq ma'lumot to'plashi (*mavzuga oid adabiyot va rasmiy veb-saytlardan foydalaning*), mashg'ulotlarni o'tkazishdan maqsadni aniq belgilab olish kerak. *Kimni ishontirishga harakat qilyapsiz? Va siz ularni nimaga ishontirishga urinmoqdasiz? Auditoriyaga qanday murojaat qilish kerak? Psixologik trening qancha vaqt bo'lishi kerak?*

Ehtimol, sizning tinglovchi-o'quvchilaringiz oldindan ma'lum ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin. Psixologik jarayonda siz o'zingizning dalillaringizni qisqacha takrorlang. Esda tuting, xulosa butun jarayonning ahamiyatini yuzaga olib chiqadi: uni unutilmaydigan holga keltiring va o'quvchilar asosiy mavzuni tushunganlariga ishonch hosil qiling.





PSIXOLOGIK MASLAHAT, PSIXOKORREKSIYA VA RIVOJLANTIRISH ISHLARI



Ta'lrim muassasasi psixologi faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri psixologik konsultatsiya, psixik rivojlantirish va psixokorreksiya ishlaridir. **Rivojlantirish va psixokorreksion** yo'nalish psixologdan o'quvchi, o'qituvchilar shaxsi va intellektini rivojlantirish jarayoniga faol ta'sir o'tkazishni taqozo qiladi.

Psixolog xonasini zaruriy hujjatlar hamda ushbu hujjatlarni saqlash vositalari, xususan, ro'yxatga olish jurnallari (*raqamlangan, tikilgan holda*) hamda seyf (*konfedensial ma'lumotli fayllarni saqlash uchun zarur*) bilan ta'minlanishi zarur. Ro'yxatga olish jurnalida o'quvchi (*mijoz yoki guruh*) haqida va maslahat o'tkazilishi haqida umumiy ma'lumotlar qayd etiladi. Ushbu jurnalning namuna shakli quyidagi jadvalda keltirilgan. Individual o'tkazilgan maslahat kartotekasiga har bir mijoz haqida ma'lumotlar kiritiladi. Ushbu ma'lumotlar maslahat berish jarayonida mijozdan psixolog maslahatchining so'rab-surishtirish natijasida olinadi. Ushbu ma'lumotlar yetarlicha mufassal bo'lishi kerak, chunki ular bo'yicha mijoz va uning muammosi mohiyati haqida tasavvur hosil qilinadi. Seyf yoki kompyuter mijozlar kartotekasini va boshqa oshkor qilinishi lozim bo'limgan ma'lumotlarni saqlash uchun zarurdir.

Yakka yoki guruh bilan psixologik maslahat ishlarini ro'yxatga olish jurnalini ischi varag'i namunasi

| No T/r | Mijozning ismi-sharifi | Maslahatni o'tkazish sanasi va vaqtি | Izoh |
|-----------|---------------------------|---|------|
| | | | |

Mijoz bilan o'tkazilgan yakka tartibdagи maslahat jarayoni kartochkasining namuna shakli

| No | Mijozning ismi- sharifi | Jinsi | Yoshi | Maslahatga murojaat etishga sabab, mijoz muammosi | Psixologining mijoz muammosi haqidagi xulosasi | Mijozga berligan tavsiyalar | Mijoz tomonidan olingga tavsiyalarning bajarilishi | Olingan natijalar |
|----|-------------------------------|-------|-------|---|--|-----------------------------------|--|----------------------|
| | | | | | | | | |

PSIXOPROFILAKTIK VA PSIXOLOGIK MA'RIFAT ISHLARI MAZMUNI



Psixoprofilaktika – shaxsnинг **psixik taraqqiyoti** учун зарур psixologik sharoitlarni yaratish hamda shaxsiy va psixik rivojlanishdagi **qiyinchiliklar, noqulayliklarning oldini olishga** qaratilgan faoliyat yo'nalishidir.



Psixoprofilaktika – ta'lif muassasasi psixologi faoliyatining maxsus turi bo'lib, o'quvchi va o'qituvchilar uchun sog'lom **psixologik muhit yaratish** va ularning rivojlanishi uchun optimal shart-sharoitlarni ta'minlash hisoblanadi.

Psixolog psixoprofilaktik faoliyati davomida ta'lif muassasasi o'qituvchilari, o'quvchilari va xodimlarining ekologik, iqtisodiy, siyosiy, etnopsixologik bilimlari saviyasini oshirish, o'quvchi va pedagogik jamoada, shuningdek, ularning oilalarida ijobjiy ijtimoiy-psixologik muhitni yuzaga keltirish bo'yicha ishlarni amalga oshiradi.

Hususan, **o'quvchilarning odamlar bilan muomala qilish, ularni tinglash va tushunish bilan bog'liq fe'l-atvorini shakllantiradi**. Bundan tashqari, **tezkor fikrlash, tasavvur qilish, mohiyatni anglash, muammoni hal qilish, yangi g'oyalarni ilgari surish, idrok qila olish** o'quvchining **asosiy sifatlari** bo'lib qolishiga erishish lozim.

Pedagogik jamoa a'zolaridagi psixologik **zo'riqish va toliqishni yo'qotish, kamaytirish, ularning oldini olish** uchun psixologik **tadbirlar, treninglar, suhbatlarni tashkillashtiradi**.

Psixolog psixologik targ'ibot va ma'rifat ishlari doirasida o'quvchi va pedagogik jamoada eng **qulay psixologik muhitni yuzaga keltirish** uchun maxsus psixologik tadbirlar olib borish, jamoada **muomala madaniyatini takomillashtirish**, o'quvchilar bilan o'qituvchilarning muomala jarayonini **yaxshilashga yordam berish**, shaxsga oid, ixtisoslikka doir muammolar yuzasidan keng ko'lamda **maslahatlar berish** ishlarni amalga oshiradi

PSIXOKORREKSION TRENING MASHG'ULOTLARI ISHLANMALARIDAN NAMUNALAR



Tanishish va birlashish treninglari

“Ism + sifat”

Ushbu o'yinni birinchi kuni hali o'quvchilar bir-biri bilan tanishib ulgurmagan vaqtida amalga oshirish lozim. Hamma ishtirokchilar doira shaklida turib olishadi. So'ngra boshlovchi (*psixolog yoki tarbiyachi*) ularga o'zin shartlarini tushuntiradi. Har bir ishtirokchi o'z ismining birinchi harfiga biron-bir sifat o'ylab topishi kerak (*misol, Ahmad – aqlii*). Boshlovchi o'z ismini va o'zi tanlagan sifatni aytib o'tadi. Undan so'ng yonidagi ishtirokchi xuddi shuni qaytaradi va unga o'z ismi va tanlagan sifatni qo'shadi. O'zin qor uyumi tarzida barcha ishtirokchilar aytib bo'limguncha davom ettiriladi. Agar ishtirokchilar soni 20 nafardan ko'p bo'lsa, u holda qor uyumi sifatida emas, balki har bir ishtirokchi faqat o'z ismi va sifatini aytib o'tish bilan kifoyalansa bo'ladi.



“Jamoa bilan ishlashni o'rganish” treningi



“Intervyu” o‘yini

Boshlovchi (*psixolog, tarbiyachi*) intervoyer sifatida turli toifali shaxslardan (*vazir, san’atkor, ta’lim maskani rahbariyati, o’qituvchi, tarbiyachi*) intervyu olishi kerakligi tushuntiriladi va bir o‘quvchini shu rolga tavsiya etadi. Tahlilda nima uchun aynan shu o‘quvchi ushbu rolga tavsiya etilganligi haqida ham fikr bildiriladi. “O’zga bo’lish san’ati” va oliy darajali muloqot texnikasi mashq qilinadi.



“Soatlar”

Ushbu o‘yin barcha ishtirokchilar **bir-birini yaxshiroq tanib olishi** uchun o’tkaziladi. Ishtirokchilar ikki guruhga bo’linadi: masalan, “o’ng” va “chap”. Ikkala guruh alohida doira shaklida tiziladi va qarama-qarshi aylana harakatni amalga oshirishadi. Boshlovchi (*psixolog yoki tarbiyachi*) ikki guruh o’rtasida turib bir vaqtning o’zida ikkala guruhdan bittadan ishtirokchini qo’lidan ushlaydi. Boshlovchi qo’lidan tutgan ishtirokchilar bir-birlarining ismlarini tez aytishi kerak bo’ladi. Kech aytgan ishtirokchi yutqizgan bo’ladi va raqib guruhiга o’tishi lozim. O‘yin ishtirokchilarning aksariyati bir guruhda yig’ilguncha davom etadi.



“Impuls”

Ishtirokchilar ikki guruhga ajratilib, bir-biriga qaragan holda ikki qatorga tizilib turadi. Guruh ishtirokchilari bir-birining qollarini ushlaydi. Qatorlarning bir tarafiga stul va uning ustiga marker (yog'och) qoyiladi. Boshqa tarafida boshlovchi (*psixolog yoki tarbiyachi*) har ikkala guruh vakillari qollarini ushlaydi. Boshlovchi qollarini qisganda ishtirokchilar ham ketma-ket bir-birini qollarini qisishadi va qaysi guruh birinchi bo'lib markerni olsa, o'sha guruh ishtirokchisi g'olib deb topiladi. G'olib bo'lgan ishtirokchi boshlovchi tarafga o'tadi. Shu tarzda o'yin barcha ishtirokchilar almashib bo'limguncha davom etadi.



“Yer-suv-osmon”

Ishtirokchilar davraga kiradilar. Boshlovchi (*psixolog yoki tarbiyachi*) o'rta ga koptok bilan turadi. Boshlovchi "Yer", "Suv", "Osmon" so'zlaridan birini aytadi va koptokni birortasiga otadi. Koptokni ilib olgan ishtirokchi aytilgan so'zga mos biror jonivorni aytadi (Yer – ot, suv – delfin, osmon – laylak va h.k.). O'yin shartini buzgan ishtirokchi koptokni tushirib yuborsa yoki mos bo'limgan jonivornining nomini aytsa) jarima baho oladi.




“Nigoh bilan chorlash”

Ishtirokchilar ikki guruhga bo’linadi: biri stullarga doira shaklida o’tirib oladi, ikkinchisi esa stullar orqasiga o’tib, qo’llarini o’tirganlar yelkasi ustida ushlab turadi. Boshlovchi (*psixolog yoki tarbiyachi*)ning stuli bo’sh bo’ladi. O’yin sharti bo'yicha bo'sh stul egasining ko'z ishorasi natijasida o'tirgan ishtirokchilardan biri o'rnidan turib bo'sh stulga o'tirib olishi kerak bo'ladi. O'yin shu tarzda davom ettiriladi.



“Ko‘priк”

Maydonchaga 30 sm enida uzunligi 5 metr ikki chiziq chiziladi. Ishtirokchilar ikki guruhga ajratilib, biri chiziqlarning bir bosh tarafiga, ikkinchisi boshqa bosh tarafiga saflantiriladi. Ikki ishtirokchi ikki tarafdan bir-biriga qarama-qarshi holatda yurib boradi. O’yin sharti bo'yicha ular chiziq tashqarisiga chiqmasdan bir-biriga yordam berib o'tib ketishlari kerak. Kimki chiziqdan tashqariga chiqib ketsa yoki qaytib ketsa, qoidani buzgan hisoblanadi. O'tib ketishning turli usullari mavjud bo'lgani uchun usullar qaytarilmasligi shart.





XULQ-ATVOR NORMALARIGA RIOYA QILISH HOLATLARINI ANIQLASHGA QARATILGAN TRENINGLAR

"TAQIQLANGAN MEVA"



Maqsad

Oilada, o'zbek milliy-madaniy turmush tarzida taqiqlangan xulq holatlari motivlarini aniqlash.



Materiallar

Quti, "mumkin emas" deb yozilgan ikkita tablichka.



O'yining borishi

O'yin 25 daqiqagacha davom etadi

1 Boshlovchi (*psixolog yoki tarbiyachi*) qutini xona o'rtafiga qo'yadi va uning ikki tomoniga "mumkin emas" degan yozuvlarni qo'yadi, ushbu yozuv hamma qatnashchilarga ko'rinish turishi kerak.

Quticha kun boshlanishidanoq xona o'rtafiga qo'yilgani ma'qul, natijada ishtirokchilarning qiziqishi ortadi, o'yining asosiy qismiga o'tish osonlashadi. Boshlovchi o'yin boshlanishida ishtirokchilarning qiziqishlarini oshirishi mumkin ("ha, endi, bir qiziq narsa yashirilgan-da", "Keyin ko'rarsizlar", "Bir narsa bor-da" kabi so'zlar bilan), lekin qutining ichiga qaramaslik haqidagi taqiq o'z kuchida turishi kerak. Ko'p hollarda, ba'zi bolalar o'zlarini tiya olmay quti ichiga qarashga urinishadi va taqiqni buzishadi. So'ngra boshlovchi ushbu mashq bilan bog'liq bo'lgan asosiy qismiga o'tadi va guruhga quyidagicha yo'riqnomaga beradi:

"Xona o'rtafiga kun boshidan o'rtasida chiroli qutibdi, uning xususiyati shundaki uning ichiga qarash mumkin emas. Bu qutiga nisbatan Sizda biron qiziqish uyg'ongan bo'lsa kerak. Kelinglar, kimning ichida nima kechayotganligini tahlil qilib ko'raylik. O'z kechinmalaringiz haqida aytib beringlar".



Tahlil

Boshlovchi (*psixolog yoki tarbiyachi*) ishtirokchilardan ular nega o'zini shu xilda tutganligini so'raydi ularning harakatlaridagi asosiy sababni aniqlashga harakat qiladi. Taqiq haqidagi qoidani buzish qanchalik qiyin bo'lganligi haqida so'raydi, o'zini tiyib turish oson yoki qiyin kechganligi haqida bilishga urinadi.

2

O'yin yakuni sifatida odamlar nega taqiqlangan xatti-harakatlarni sodir etishlari, oilaviy hayotga zid bo'lgan xatti-harakatlarni amalga oshirishlarining sabablari aniqlanadi. Ushbu yakuniy xulosalar kichik guruhlarda ham ishlab chiqilishi mumkin.

"O'ZIMIZNI QANDAY TUTAMIZ"



Maqsad

Turli xulq xatti-harakatlarini ko'rib chiqish va ularning muloqotga tegishli harakatlarining shakllanishiga ta'sirini aniqlash.



Materiallar

toza qog'oz, ruchka, calam, 3 ta suratli plakat va ularga taalluqli xulq, harakatlarining izohi.




O'yinning borishi

O'yin 20 daqiqa davom etadi.



Materiallarni tayyorlash

Har bir plakatning chap tomoniga u yoki bu xulq, xatti-harakatini ko'rsatuvchi tasvir tushirilgan qog'oz yopishtiriladi. Rasmning yonida ushbu xulqning tavsiflari yozilgan.



Sust (passiv) xulq:

- O'z huquqlaringizni ta'kidlash uchun hech qanday xatti-harakat qo'llamayapsiz.
- O'zgalarni o'zingizdan yuqori baholayapsiz.
- Boshqalarning xohishiga yon beryapsiz.
- Sizni nimadir bezovta qilsa ham, indamay turibsiz.
- Doimo uzr so'rayapsiz.



Agressiv xulq:

- Boshqalarni hech qancha o'ylamay o'z huquqlaringizni himoya qilayapsiz.
- O'zgalar ustidan hukmronlik qilishga urinyapsiz.
- O'zgalarni unutib, faqat o'zingizni o'ylaysiz.
- Boshqalar hisobiga o'z huquqlaringizga erishyapsiz.



Ishonchli xulq

- O'zgalar huquqini poymol qilmay o'z huquqlaringizni himoya eta olasiz.
- O'zingizni va o'zgalarni hurmat qilasiz.
- Tinglashni va gapirishni bilasiz.
- Ham ijobjiy, ham salbiy hissiyotlaringizni ayta olasiz.
- O'zingizga ishonasiz, lekin o'zgalarni "haqoratlamaysiz".

1 Kirish. Ko'pincha o'zimizga ishonmasligimiz bizni turli salbiy kuchlarga qarshi turolmasligimizga olib keladi, natijada har xil nojo'ya vaziyat va xatti-harakatning ishtirokchisiga aylanib qolamiz. Turli salbiy yo'llarga kirib ketmaslik uchun biz o'z xulq-atvorimizni, uning ichki sabablarini yaxshi tushunishimiz, xatti-harakatlarimizni nazorat qilishimiz, hissiyotlarimizni boshqara olishimiz kerak.

2 Guruh uchta kichik guruuhlarga bo'linadi.

3 Har bir kichik guruhga quyidagicha topshiriq beriladi: ko'rsatilgan uchta suratga asoslangan holda, har xil xulq formalarining xatti-harakatlari, ichki holatlari va nutq xususiyatlarini izohlab bering (*guruuhlar ishlayotgan paytda suratlarga taalluqli tavsiflar yopib qo'yiladi, suratlar esa ochiq qoladi*).

4 Har bir guruh tomonidan taqdim etilgan variantlarni muhokama qilish.
So'ngra boshlovchi (*psixolog yoki tarbiyachi*) plakatdagi tavsiflarni o'qib izohlaydi. Boshlovchilar o'z xatti-harakatlari orqali har xil xulq modellarini misol tariqasida ko'rgazmali namoyon etishlari mumkin.

5 Ikkala boshlovchi ishtirokida aggressiv va sust xulq ko'rinishlari tasvirlanadi. Ishtirokchilardan esa boshlovchilarning harakatlari, imo-ishora va so'zlarini kuzatgan holda, ushbu xulq ko'rinishlarining nomlarini to'g'ri topishlari so'raladi.

Birinchi vaziyat: aggressiv holatdagi bir kishi ikkinchi – sust holatdagi va o'zi yaxshi tanimaydigan odamdan katta miqdordagi pulni qarz so'rayapti.

Ikkinchi vaziyat: Agressiv holatdagi bir kishi ikkinchi – o'ziga ishongan va e'tiroz bildirayotgan odamni spirtli ichimlik ichishga undayapti.

6 Ishtirokchilar orasidan ko'ngilli qatnashuvchi chaqiriladi va unga guruhdan sir tutilgan holda, u o'ynashi lozim bo'lgan rol va shu rolga taalluqli vaziyat aytildi.

Boshlovchi (*psixolog yoki tarbiyachi*) bu vaziyatda o'ziga ishongan odamning rolini o'ynasa, guruhning boshqa a'zosi ko'ngilli bo'lib aggressiv xulqli kimsaning rolini o'ynaydi.

Shunisi ahamiyatlici, boshlovchi ishtirokchilar orasidan guruh liderlarini va guruh a'zolari yoqtirmaydigan bolalarni ajrata bilishi, tabiatan agressiv va sust xulqli ishtirokchilarni aniqlab olishi zarur. Bu hol ko'ngillilarni aniqlashda juda muhimdir – agressiv xulqli shaxslarga sust yoki o'ziga ishongan xulqli rollarni taqdim etgan ma'qul bo'lsa, sust xulqli shaxslar o'ziga ishonganlarning rolini o'ynashsin.

Shaxs o'ziga berilgan rolni muvaffaqiyatl ijob etishi yoki ijro eta olmasligi unchalik muhim emas. Agar bu rolni yaxshi ijro eta olmasa, o'zi yoki guruh buning sababini muhokama qilishlari mumkin, agarda rol yaxshi ijro etilsa guruh a'zolari ushbu xulq ko'rinishi kimga tegishli ekanligini darrov bilib olishadi.

7 Ishtirokchilar taqdim etilayotgan xulq ko'rinishlarini aniqlashadi, o'z taxminlarini izohlashadi.

"QADRIYATLAR"



Maqsad

Shaxsiy qadriyatlar iyerarxiyasini tuzilishi muhimligining ahamiyatlilik darajasini his qilish va anglash.



Shart-sharoitlar:

Mashq tinchlaniruvchi, bir maromdagи musiqa sadolari ostida bajarilishi zarur. Bunda matn o'qiyotgan boshlovchi (psixolog yoki tarbiyachi) ovozining qanday ohangda ekanligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.



O'yinning borishi

O'yin 20 daqiqa davom etadi.

O'yinning borishi:

Ishtirokchilarga oltita varaq tarqatilib, mana shu qog'ozlarga o'z hayotlaridagi eng qadrli narsalarni ahamiyatlilik darajasiga ko'ra yozib chiqishlari so'raladi. Keyin varaqlar shunday aralashtiriladiki, eng qadrli narsa yozilgan varaq oxirida turishi kerak. Boshlovchi ishtirokchilarga qandaydir hodisa ro'y berib, birinchi varaqda yozilgan qadriyatdan mahrum bo'lganliklarini his qilib ko'rishlarini taklif qiladi. So'ngra boshlovchi ishtirokchilardan shu qadriyat yozilgan qog'ozni g'ijimlab uloqtirishni va hayotni ana shu qadriyatsiz tasavvur qilib ko'rishlarini so'raydi.

Shu tariqa har bir qadriyatdan voz kechib boriladi. Shundan so'ng ishtirokchilarga qadriyatdan ajralayotgan vaqtida qanaqa hissiyot, qanaqa tuyg'uni his qilganligini eslash taklif qiladi. Keyin boshlovchi mo'jiza ro'y berib, qadriyatlarni birma-bir qaytarish imkoniyati tug'ilganligini e'lon qiladi va g'ijimlangan qog'ozlarni birma-bir qaytarib oladi.

So'ng ishtirokchilardan qadriyatlarning yo'qotilgan paytdagi holati va g'ijimlangan qog'ozlarga yozilgan holatini solishtirib, yo'qotilgan paytdagi qadriyatlarni hozir ham xuddi shunday qadr-qimmatga egami yoki yo'qmi ekanligini so'raydi. Agar guruh a'zolari qadriyatlarni ahamiyatiga ko'ra o'rinlarini almashtirgan bo'lsa, buni ham bayon qilishlari kerak. Mashg'ulot so'ngida boshlovchi natijalarni muhokama qilib, xulosalarни bayon etadi.

Diqqat! Mashg'ulot jarayonida ishtirokchilar kuchli ruhiy kechinmalarni, zo'riqishlarni his qilishlari mumkin. Shuning uchun mashg'ulot ortiqcha shovqin-suronsiz o'tishiga, ortiqcha ovozlar bo'lmasligiga, ishtirokchilarning bir-biriga halakit bermasligiga va begona odamlarning xonaga kirmasligiga e'tibor berish lozim. Shu bilan birga, boshlovchi ham ishtirokchilarga diqqat-e'tiborli bo'lishi zarur.

Diqqat! Mashg'ulot jarayonida ishtirokchilar kuchli ruhiy kechinmalarni, zo'riqishlarni his qilishlari mumkin. Shuning uchun mashg'ulot ortiqcha shovqin-suronsiz o'tishiga, ortiqcha ovozlar bo'lmasligiga, ishtirokchilarning bir-biriga xalaqit bermasligiga va begona odamlarning xonaga kirmasligiga e'tibor berish lozim. Shu bilan birga, boshlovchi ham ishtirokchilarga diqqat-e'tiborli bo'lishi zarur.



"Tezkorlik va diqqatni bir joyga jamlash
(Impuls)" treningi



"Qo'rquvni yengish" treningi

"NIZOLI VAZIYATLAR KORREKSIYASI" TRENINGLARIDAN NAMUNALAR



"NIZOLI VAZIYATLARNI HAL ETISH"



Maqsad

Nizoni bartaraf etuvchi harakatlar namunasini havola etishdan iborat (*ayni holatda bu – o'ziga-o'zi ishongchli xulq-atvor ko'rinishidir*). Ishtirokchilarni "ichi puch" nizolarning sabablari bilan tanishtirish. "Ijtimoiy xavfli" vaziyatlardan konstruktiv (*ijobiy yechim topgan holda*) chiqib keta olish va nizodan chetda qolish malakalarini shakllantirish.



Materiallar

Vaziyatlar bayon etilgan 3 xil rangli qog'ozlar.

Vaziyatlar:

N1 "Tengqurlaring hali biror marta sigaret chekib ko'rmaganingni mazax qilib ustingdan kulishyapti. Ulardan biri senga: "*Sen hali yosh bolasan va bunday jiddiy ishlar bilan shug'ullanishga "yoshlik" qilasan*", - dedi. Uning gapi senga juda og'ir botdi va Sen unga javob berishga qaror qilding.

N2 Xulqi yaxshi bo'lмаган tengqurlaringdan biri kechqurun qayerdadir o'tadi-gan kechaga seni taklif qilyapti. U bola (qiz) spirtli ichimlik iste'mol qiladi va hatto sigaret ham chekadi. U senga: "*Yur, bir dam olib kelamiz, sen axir katta yigitsan-ku (qizsan-ku), uyingdagilar senga ruxsat berishadi-ku*", – deyapti. Bu vaziyat seni bezovta qilyapti va sen unga rad javobini bermoqchisan.

N3 Agressiv holatdagi kishi ikkinchi – o'ziga ishongan va e'tiroz bildirayotgan odamni spirtli ichimlik ichishga undayapti.

1 Boshlovchi (psixolog yoki tarbiyachi) ko'pincha uchraydigan nizoli vaziyatlarning sabablarini aytadi va ularning oldini olish yoki ulardan chiqishning qadam-baqadam bosqichlarini sanab o'tadi.

"Ichi puch" nizolarning sabablari:

Ko'pincha odamlar o'tasidagi nizoli munosabatlarning sababi – ular bir-birlarini yoki biror muammoga nisbatan sheringining munosabatini oxirigacha yaxshi tushunmasligidir.

Bunday vaziyatlarda suhbat kelishish yo'nalishida emas, balki o'zaro talablar qo'yish darajasida olib boriladi. Ko'p jihatdan, bu xil harakat uslubini tanlashning sababi nizoli vaziyatlardan chiqish tajribasining yo'qligi va nizolarni konstruktiv hal eta olmaslikdir.

Nizoli konstruktiv hal etish uchun har ikki tomonni nima qoniqtirmayotganligini aniqlab olish zarur. Buning uchun esa bir necha qadamdan iborat bo'lgan quyidagi algoritmni o'zlashtirib olgan ma'qul:

***Muammoning mohiyatini va, ayni paytda, nimani his etayotganligingizni tushuntiring, muammo haqidagi o'z fikringizni to'la bayon eting.

Ushbu vaziyatdan chiqish yechimini, o'z talabingiz va iltimosingizni aytинг.

***Sizning talabingiz yuzasidan sheringizingizning fikrini aniqlang.

***Shericingizning samimiy gaplari yoki u taklif etgan yechim uchun unga tashakkur bildiring.

2 Boshlovchi ishtirokchilar orasidan N3 vaziyatni ijro etish uchun ko'ngillilarni chaqiradi va bu o'yin orqali nizoli vaziyat kelib chiqishining oldini olish imkoniyati namoyon etiladi. Muhokama.

3 Guruh uchliklarga bo'linadi.

Har bir uchlikda uchta vaziyat o'yin tariqasida ijro etiladi (*har bir ishtirokchi aggressiv, nizodan chiqa oluvchi va o'ziga ishongan odam rolida hamda kuzatuvchi rolida ishtirok etishi shart*).

4 Har bir vaziyat ijro etilganidan keyin kuzatuvchilar o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashadilar.

5 O'yin nihoyasida ishtirokchilar o'z kechinmalari haqida fikr almashadilar, qanday ijobiy natijalarga erishilganligi yoki muvaffaqiyatsizliklarning sabablari muhokama qilinadi.

"AVLODLAR O'RTASIDAGI NIZO"



Maqsad

O'quvchilarda muomala madaniyatini shakllantirish, shaxslararo munosabatlarni ijobiy rivojlantirish.

Bunda uch kishi ishtirok etadi - yigit, qiz va katta yoshli odam. Avlodlar o'rtasida "Eh, hozirgi yoshlar..." qabilida taqlid uyushtiriladi. Yigit va qizning vazifasi: imkon boricha xushmuomalalik bilan nizodan qochish. Psixolog va tarbiyachi har bir o'quvchining harakatini baholab boradi.

MULOQOT JARAYONINI FAOLLASHTIRISHGA DOIR TRENING MASHG'ULOTLARI



"ORQADAGI YOZUVLAR"

Ishtirokchilarning yelkalariga qog'oz yopishtirib qo'yiladi. Barcha ishtirokchilar xonada xohlagan odamning oldiga borib uning yelkasidagi qog'ozga bu odamning nimasi o'ziga yoqishini yozishi kerak. Vazifani mukammallashtirish ham mumkin. Masalan, o'sha odamda nimani o'zgartirishni xohlashini yozishi mumkin.



"Sezgini rivojlantirish"
treningi

"MA'LUMOTNI SO'ZSIZ UZATISH"

Bu o'yinda boshlovchi (psixolog yoki tarbiyachi) yo'naltirib turuvchi rolini bajaradi. Boshlovchi shunday tushuntirish beradi: "Hozir bir kishi xonadan tashqariga chiqib turadi, qolganlar esa unga qanaqa ma'lumotni aytish lozimligi haqida kelishib olishadi. Men uni chaqiraman, shunda butun guruh imo-ishora, turli qiliqlar va yuz harakatlari bilan unga shu ma'lumotni uzatishga harakat qilishadi. Chaqirilgan odamning vazifasi – guruh unga aytmoqchi bo'layotgan ma'lumotni anglab olishdan iborat".

Boshlovchi (psixolog yoki tarbiyachi)ga eslatma: odatda, shaxslar o'yin muhitidan nojo'ya xatti-harakatlarni bajarish uchun bahona sifatida foydalanishlari mumkin. Albatta, bu o'yinda nojo'ya harakatlar bo'lishi tabiiy, lekin kimki vaziyatdan sho'xlik va hazil-huzul uchun foydalanmoqchi bo'lsa, uni guruh a'zolari tartibga keltirib qo'yishi kerak. Bu usulning muhim ta'sir kuchiga egaligini hisobga olib, uni jamoatchilikdan xoli va shovqin kam bo'lgan maxsus xonalarda o'tkazish maqsadga muvofiqidir.

"IKKI QO'LLAB KO'RISHISH"



Ishtirokchilarning hammasi doira shaklida o'tirishadi. Qo'llar bir-biriga birlashtirilgan bo'ladi. Ishtirokchilar birvarakayiga xohlagan tomonidagi (chap yoki o'ng yonidagi) kishiga salomlashish uchun qo'shqo'llab qo'l uzatadi. Unisi esa qo'llarini yonidagisiga uzatishi mumkin va birinchi ishtirokchiga navbat yetgunicha shu holda davom etadi. Shunday qilib bir nechta mos kelmaslik holati kuzatilishi tabiiy. Ana shunda qanday shovqin ko'tarilishini ko'rasiz!

Bu o'yinni bir necha bor takrorlash nafas rostlash va tinchlanish uchun foydalidir.



MUHITNI IJOBIYLASHTIRUVCHI VA AHILLASHTIRUVCHI TRENING MASHG'ULOTLARI

"ORQAMA-ORQA"

Ishtirokchilar xona bo'ylab harakat qiladilar. Boshlovchi (*psixolog yoki tarbiyachi*) tana a'zolaridan birining nomini aytadi, masalan, "yelka" deydi. Shunda ishtirokchilar o'zlariga juft topib, bir-biriga suyanishlari kerak. O'ziga sherik topa olmagan ishtirokchi esa o'rta ga chiqadi va o'yinni davom ettirish uchun boshqa tana a'zolarining nomini aytadi (*masalan qo'l, oyoq, bosh barmoqlar va hokazo*).

"G'ARAM, TEPALIK, SO'QMOQ"

Ishtirokchilar 6-10 kishilik guruhga bo'linadilar. Har bir guruh a'zolari bir-birlarining qo'llaridan ushlab, davra quradilar. O'yin ishtirokchilarning o'ng tomonga qarab aylanishi bilan boshlanadi. Boshlovchi (*psixolog yoki tarbiyachi*) tomonidan "So'qmoq" deyilganda ishtirokchilar bir qator bo'lib o'tirib olishlari kerak. 'G'aram' deyilganda har bir guruh 2 kichik guruhga bo'linadi va bir-biriga yuzma-yuz bo'lib, qo'llarini birlashtirib yuqoriga ko'taradilar. "Tepalik" deyilganda esa, ishtirokchilar yana bir qator bo'ladilar, biroq bunda guruhdagi bir ishtirokchi tursa, ikkinchisi o'tirib oladi, natijada tepaliklar ko'rinishini aks ettiradilar. Vazifani boshqalardan oldin va yaxshi bajargan guruhga 1 ball beriladi. Shunday qilib eng ko'p ball jamg'argan g'olib deb topiladi.

FAOLIYATDAGI ISHCHANLIK MUHITINI YARATUVCHI TRENING MASHG'ULOTLAR



“JOY ALMASHISH”

Ishtirokchilar doira atrofida o'tiradilar, trener esa doira o'rtasida turadi.

Yo'riqnomalar: "Hozir bizda tanishuvni davom ettirish imkoniyati bo'ladi. Buni shunday qilamiz: doiraning markazida turgan kishi (boshida bu men bo'laman) biror umumiy belgiga ega bo'lgan narsani hammaga taklif etadi va kimda shu belgi bo'lsa, u joyini almashadi. Masalan, men shunday deyman: "Singlisi borlar joyingizni almashtiring" va hamma singlisi borlar joylarini almashtirishlari kerak. Bunda doiraning markazida turgan kishi bo'shagan joyni egallahsha ulgurishi kerak. Markazda joysiz qolgan ishtirokchi esa o'yinni davom ettirishi kerak".

Mashq tugaganidan so'ng trener guruhga quyidagi savollar bilan murojaat etishi mumkin: "Siz o'zingizni qanday sezayapsiz?", "Hozir sizning kayfiyattingiz qanday?". Qoidagi muvofiq, mashqlar qizishganlikni pasaytiradi, kayfiyatini ko'taradi, diqqat va fikrlarni faollashtiradi.

"Fikrlash doirasini kengaytirish" treningi



“O'TIRIB TURISH”

Hamma ishtirokchilar doira shaklida o'tiradilar.

Yo'riqnomalar: "Men sizlarga u yoki bu barmoqlar sonini ko'rsataman. Ba'zan bir qo'lda, ba'zan ikki qo'lda, men qo'limni ko'tarishim bilan, shuncha ishtirokchilar o'rnlaridan turishlari kerak, nechta ekanligini men ko'rsataman (ko'p ham, oz ham emas). Masalan: agar men qo'limni ko'rsatib to'rtta bermog'imni ko'rsatsam (ko'taradi va ko'rsatadi) unda mumkin qadar tezroq sizlardan to'rt kishi turadi. Qachonki, men kaftimni tushirsam, ular o'tirishlari mumkin".

Trener guruhga bir necha marta u yoki bu barmoqlarining sonini ko'rsatadi. Mashq boshlanishida 5-7 barmoqni ko'rsatish yaxshiroq bo'ladi, oxiriga borib esa 1-2 ta barmoqlarni. Mashqning bajarilishi jarayonida trener guruh ishtirokchilarinnig vazifani bajarishga bo'lgan intilishlari haqida mulohaza yuritadi va taalluqli xulosalar chiqaradi. Muhokama vaqtida trener guruhga bir necha savollar berishi mumkin: "Biz oldimizga qo'yilgan vazifani bajarishimizda nima yordam berdi, yoki uning bajarilishini nima qiyinlashtirdi?", "Siz turishga qaror qilganingizda nimani nazarda tutdingiz? Agar bizda bu vazifani oldindan muhokama qilish, qaror qilish imkoniyati bo'lganda, ishni qanday tashkil etgan bo'lardik?".

PSIXODIAGNOSTIK METODIKALAR:

ANKETA METODI

1. Qaysi o'quv fanlarini ma'qul ko'radi (uchta fandan ortmasligi lozim):

2. Mehnat (o'quv) faoliyatidagi o'zlashtirish muvaffaqiyati (ostiga chizing):

yuqori (baho 4 - 5),

o'rta (baho 3 - 4),

past (baho 2 - 3).

3. O'quv (mehnat) faoliyatidan bo'sh paytidagi qiziqishlari:

To'garaklardagi mashg'ulotlari: _____

Kurslardagi ishtiroki (ko'rsating):_____

Sport bilan shug'ullanishi (turi, sport razryadi) _____

boshqalar

(ko'rsating) _____

4. Qanday olimpiada, musobaqalar va tanlovlarda ishtirok etgan? Ishtirok natijalari (ko'rsating) _____

5. O'quv (mehnat) faoliyatiga munosabati (ostiga chizing):

Vijdonan yondashadi _____ qo'l uchida;

Tashabbuskor _____ tashabbussiz.

6. Kasallik sabab o'z ish joyida (o'qishda) davomiy yoki surunkali bo'lmasligi (ostiga chizing): ha, yo'q _____

7. O'quv (mehnat) jamoasi doirasidagi xulq-atvor xususiyatlari:

Ko'pchilikdan ajralib turadi (ostiga chizing) - ha, yo'q;

Agar ajralib tursa – nimasi bilan (ostiga chizing):

O'qish (mehnatga) munosabati bilan:

faol _____ sust;

O'quv (mehnat)ga intizomi bilan:

Haddan ortiq intizomsiz _____ haddan ortiq intizomli;

Jamoadagi xulqi bilan:

muloqotchan _____ o'zi bilan o'zi band;

boshqa narsasi bilan (ko'rsating) _____

8. O'quv (mehnat) jamoasidagi ishtiroki (ostiga chizing):

Faol ishtirok etadi (tashkilotchi),

Ijrochi sifatida ishtirok etadi,

Ishtirokdan qochadi,

Ishtirokni rad etadi.

9. O'quv (mehnat) jamoasida tutgan o'rni (ostiga chizing):

lider,
norasmiy lider,
tobe a'zosi,
jamoadan chetga chiqarilgan,
individualist.

10. Qobiliyatlarining mavjudligi (ostiga chizing):

matematik,
texnik,
musiqiy,
badiiy,
boshqa (ko'rsating) _____

11. Rahbariyat e'tirozlari va tanqidiga munosabati (ostiga chizing):

Kamchiliklarni bartaraf etishga harakat qiladi

E'tirozlarni e'tiborga olmaydi;

Emotsional reaksiyalari:

agressiya,
xafa bo'lish,
xotirjam,
loqayd,
depressiya.

12. Shaxsning eng o'ziga xos jihatlari (sanab o'ting)

13. Alkogol va tamaki mahsulotlariga munosabati:

alkogol (ostiga chizing):

iste'mol qilmaydi,
kamdan-kam iste'mol qiladi,
ko'p iste'mol qiladi;
sigaretalar (ostiga chizing):
chekmaydi,
oz miqdorda chekadi,
ko'p chekadi.

14. Kasbiy faoliyatga moyilligi (qaysi kasbga moyilligini ko'rsating)



O'QUV MOTIVATSIYASI YO'NALISHINI ANIQLASHGA QARATILGAN TEST-SO'ROVNOMA



Metodikaning maqsadi:

o'quvchilarning aniq o'quv fanlarini o'rganish chog'idagi o'quv faoliyati ichki motivatsiyasining taraqqiyoti darajasi va yo'nalishini tadqiq etish.

Metodika 20 ta mulohaza va javoblarning taklif etilgan variantlaridan tashkil topgan. Natijalarning ishonchlilagini oshirish maqsadida, ham ijobiy, ham salbiy javoblar bir xil miqdorda olingan. So'rovnoma o'qituvchi shaxsiga tegishli mulohazalar mavjud emas, bu jihat ushbu metodikani «O'qituvchi o'quvchilar nigohida» yoki «O'qituvchiga bo'lgan munosabat» kabi metodikalardan ajratib turadi. O'quvchilar dars jarayoniga bo'lgan munosabatini aks ettirishadi. Tadqiqot *anonym, guruh bilan yoki yakka tartibda* o'tkazilishi mumkin.


An'anaviy javob variantlaridan («ha», «yo'q») farqli ravishda, so'rovnoma ehtimolli javoblar turkumi kengaytirilgan.

Javoblar sinaluvchilar tomonidan maxsus varaqalarda yoki toza varaqda pluslar va minuslar tarzida berilishi mumkin. Qayta ishlash kalitiga mos ravishda amalga oshiriladi. Metodika o'zini tahlil qila olishga qodir barcha toifadagi o'quvchilarda qo'llanilishi mumkin.

Test- so'rovnoma mazmuni

Ko'rsatma: Ta'lrim samarasini oshirish maqsadini ko'zlab, biz Sizdan ushbu tadqiqotimizda ishtirok etishingizni so'raymiz. Har bir ta'kidni diqqat bilan o'qib chiqing hamda o'rganilayotgan fanlarga bo'lgan o'z munosabatingizni bildiring. Buning uchun, har bir ta'kidning tartib raqami ro'parasiga o'z javobingizni qo'ying, bunda quyidagi belgilardan foydalanishingiz mumkin:

**to'g'ri – (++)
to'g'ri hisobi – (+)
mutlaqo noto'g'ri – (-)
noto'g'ri – (- -).**



Mulohazalar mazmuni

1. Ushbu fanni o'rganish menga o'zim uchun muhim bo'lgan ko'p narsalarni bilishga, qobiliyatlarimni namoyon qilishga imkoniyat beradi.
2. O'rganilayotgan fan men uchun qiziqarli va men ushbu fanga doir narsalarni imkon qadar ko'proq bilishni istayman.
3. Mashg'ulotlarda olayotgan bilimlarimning o'zi ushbu fanni o'rganishim uchun menga yetarlidir.
4. Ushbu fan bo'yicha berilgan o'quv vazifalarning menga qizig'i yo'q, men ularni o'qituvchi talab qilgani uchungina bajaraman.
5. Ushbu fanni o'rganish paytida vujudga keladigan qiyinchiliklar bu fanni men uchun yanada qiziqarliroq qiladi.
6. Ushbu fanni o'rganish paytida darsliklar va tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari, men, mustaqil ravishda, qo'shimcha adabiyotlarni ham o'qiyan.
7. Ushbu fan bo'yicha berilgan murakkab nazariy masalalar o'rganilmasa ham bo'lardi, deb hisoblayman.
8. Ushbu fan bo'yicha biror narsani tushunmasam, men uning mohiyatiga yetishga harakat qilaman.
9. Ushbu fan bo'yicha o'tadigan mashg'ulotlarda «mening umuman o'qigim kelmay qoladigan» kayfiyat tez-tez bo'lib turadi.
10. O'qituvchining nazorati ostidagina men faol ishlayman va vazifalarni bajaraman.
11. Ushbu fanni o'rganish chog'ida olgan ma'lumotlarimni bo'sh paytimda (uyda, tanaffusda) o'z sinfdoshlarim (do'stlarim) davrasida ishtiyoq bilan muhokama qilaman.
12. Ushbu fandan berilgan vazifalarni mustaqil bajarishga intilaman, birovlar ayтиб tursa yoki yordamlashsa, yoqtirmayman.
13. Berilgan vazifalarni yo do'stlarimdan ko'chirib olishga, yoki kimlarnidir vazifani menin o'rninga bajarib berishlarini iltimos qilaman.
14. Ushbu fandagi barcha bilimlar qimmatli deb hisoblayman va ushbu fanga taalluqli narsalarni imkon qadar ko'proq bilish kerak, deb o'layman.
15. Ushbu fandan qo'yiladigan baho men uchun bilimlardan ham ahamiyatliroq.
16. Agar men darsga tayyor bo'lmamasam ko'p qayg'urmayman ham, kayfiyatimni ham buzmayman.
17. Mening bo'sh paytimdagi qiziqishlarim shu fan bilan bog'liqdir.
18. Ushbu fanni o'zlashtirish menga qiyindir, o'quv vazifalarini bajarish uchun men o'zimni majbur qilishimga to'g'ri keladi.
19. Agar betobligim (yoki boshqa ba'zi bir sabablar) tufayli ushbu fanga taalluqli darslarni qoldirishga majbur bo'lsam, xafa bo'laman.
20. Agar bu ish menin imkoniyatim darajasida bo'lganda edi, men ushbu fanni o'quv rejasidan butunlay olib tashlagan bo'lardim.

Javob varaqalari

Sinfi: _____; Jinsi: _____

| Savol t/r: | O'rganilayotgan fanlar nomlari | | | | | | | | |
|------------|--------------------------------|--------|-----|-----|--|--|--|--|--|
| | Matematika | Fizika | ... | ... | | | | | |
| 1 | | | | | | | | | |
| 2 | | | | | | | | | |
| 3 | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | |
| 19 | | | | | | | | | |
| 20 | | | | | | | | | |

*fanlar nomlari tadqiqotchi ixtiriyoga ko'ra qo'yiladi

Natijalarini qayta ishlash

So'rovnama ko'rsatkichlarini hisoblash kalitga mos ravishda amalga oshiriladi, bunda ijobjiy javoblar (to'g'ri, to'g'ri hisobi) «ha» ni bildirsa, salbiy javoblar (mutlaqo noto'g'ri, noto'g'ri) «yo'q»ni anglatadi.

| | | | | | | | | | | | |
|------|---|---|---|---|----|----|----|----|----|----|----|
| Ha | 1 | 2 | 5 | 6 | 8 | 11 | .. | 12 | 14 | 17 | 19 |
| Yo'q | 3 | 4 | 7 | 9 | 10 | 13 | .. | 15 | 16 | 18 | 20 |

Kalitga mos tushgan har bir to'g'ri javobga bir balldan hisoblanadi. **Yakuniy ball** qanchalar **yuqori** bo'lsa, demak, fanni o'rganishga yo'naltirilgan **ichki motivatsiya** ko'rsatkichi shunchalar **baland** bo'ladi. Yakuniy ball qanchalar **past** bo'lsa, demak, fanni o'rganishga nisbatan **tashqi motivatsiya ustuvorlik** qiladi.

Natijalar tahlili

Tekshiriluvchilar javoblarini qayta ishlash jarayonida olingan natijalar quyidagicha tahlil qilinadi:

0-10 ball - tashqi motivatsiya;

11-20 ball - ichki motivatsiya.

Ichki motivatsiya darajasini aniqlashda quyidagi me'yoriy chegaralar qo'llanilishi mumkin:

0-5 ball - sust darajadagi ichki motivatsiya;

6-14 ball - o'rta darajadagi ichki motivatsiya;

15-20 ball - yuqori darajadagi ichki motivatsiya.



“ODAMNING GEOMETRIK SHAKLLAR YORDAMIDA CHIZILGAN RASMI” METODIKASI



Maqsad

odamlar o'tasidagi individual tipologik farqlarni aniqlash.

Ko'rsatma: Siz uchburchak, aylana, kvadratlardan foydalangan holda xohishingizga qarab, jami o'n elementdan iborat odam figurasini chizib berishingiz lozim. Geometrik shakllar o'lchami har xil bo'lishi mumkin, ularni zaruriyattingizga qarab ishlatasiz. Muhimi – odamni chizishda shu uch elementdan foydalanilsa, bas. Shakllarning umumiyligi soni o'ntadan oshmasligi kerak. Elementlar oshiqchasin o'chirish, kamini to'ldirishi darkor. Rasmni ko'rsatmaga binoan chizing.

Sinaluvchilarga 10x10 sm o'lchamli uch dona varaq raqamlangan hamda imzolangan holda tarqatiladi.

N 1 varaqqa birinchi sinov rasmi tushiriladi, undan keyin N2, N3... ga.

Undan so'ng ma'lumotlar qayta ishlanadi. Ko'rsatma buzilgan bo'lsa, tarqatma material yaroqsiz bo'lgan deb hisoblanadi.

Ma'lumotlar quyidagi ko'rinishda qayta ishlanadi:

Odamchani tasvirlashda foydalanilgan uchburchak, aylana, kvadratlar soni har bir rasm uchun alohida hisoblanadi va natija uch xonali son bilan ifodalanadi, bunda uchburchak – 100, aylana – 10, kvadrat – 1 liklarda bo'ladi.

Masalan, 3 ta uchburchak, 4 ta aylana, 3 ta kvadrat qo'llanilgan bo'lsa, bu - 343 sonini beradi. Ushbu son rasm formulasini tashkil qiladi. Unga qarab chizayotgan kishilarning o'ziga mansub bo'lgan turi aniqlanadi.

Turlar quyidagi jadvalda keltirilmoqda:

Individual-psixologik farqlar tizimi

| | | | | | | | | | |
|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
| 901 | 802 | 703 | 604 | 505 | 406 | 307 | 208 | 109 | |
| 910 | 811 | 712 | 613 | 514 | 415 | 316 | 217 | 118 | 019 |
| | 820 | 721 | 622 | 523 | 424 | 325 | 226 | 127 | 028 |
| | | 730 | 631 | 532 | 433 | 334 | 235 | 136 | 037 |
| | | | 640 | 541 | 442 | 343 | 244 | 145 | 046 |
| | | | | 550 | 451 | 352 | 253 | 154 | 055 |
| | | | | | 460 | 361 | 262 | 163 | 064 |
| | | | | | | 370 | 271 | 172 | 073 |
| | | | | | | | 280 | 181 | 082 |
| | | | | | | | | 190 | 091 |

1-tur. RAHBAR

Odatda bunday odamlar boshqarish va uyushtirish faoliyatiga moyil bo'lishadi. Ular jamiyatdagi muhim axloqiy me'yorlarga tayanishadi, yuqori darajadagi nutqqa ega bo'lib, hikoyanavislik iqtidori ham yo'q emas. Ko'pchilik qatnashadigan, jamoat joylarga yaxshi moslasha olishadi. Boshqalar ustidan hukmronlikni ma'lum bir chegarada saqlay biliшadi. Odatda yashil rangni tanlaydilar va DARAXT testida ARCHANI

FORMULARAR – 901, 910, 802, 811, 820, 703, 712, 721, 730, 604, 613, 622, 631, 640.

901, 910, 802, 811, 820 – bundaylarda ustuvorlik juda kuchli namoyon bo'ladi.

703, 712, 721, 730 – bundaylar vaziyatga qarab ishlashadi.

604, 613, 622, 631, 640 – bundaylar hukmini nutq ta'sirida o'tkazadi, boshqacha qilib aytganda, bular O'QITUVCHILAR toifasiga mansub.



Shuni ta'kidlab o'tish joizki, ushbu sifatlar namoyon bo'lishi sinaluvchining psixik taraqqiyoti darajasiga ham bog'liq bo'ladi. Yuqori darajada rivojlangan individual-psixologik sifatlar yaxshi anglanib, ro'yobga chiqishi oson bo'ladi. Rivojlanishi past darajada bo'lsa, kasbiy faoliyatda namoyon bo'lmaydi, balki vaziyatga qarab ko'rinish beradi. Bular barcha ta'riflarga xos.



2-tur. MAS'ULIYATLI IJROCHILAR

Ular ham RAHBARLARga taalluqli ko'plab xislatlarga ega, biroq mas'uliyatli qarorlar qabul qilish chog'ida ikkilanadilar. Bunday kishilar ishni bajarishga usta bo'ladilar, o'ta mahoratli, mas'uliyatli va o'ziga ham, boshqalarga ham talabchan, haqiqatgo'y, ya'ni har joyda adolat qilishligi bilan ajralib turadilar. Ko'pincha, asabga bog'liq somatik kasallikkarga chalinishadi.

FORMULARAR – 505, 514, 523, 532, 541, 550.

3-tur. XAVOTIRLI-SHUBHALI

Bunday kishilar turfa qobiliyatlar va iqtidor egalari bo'lishadi. Ularda nafis qo'l harakatlari ko'nikmalaridan tortib adabiy iqtidorgacha bor. Odatda bunday odamlarga bir kasbning o'zi kamlik qiladi, ular o'z kasblarini kutilmaganda, umuman, qarama-qarshi kasbga o'zgartirishlari mumkin. Tartibsizlik ularga yot bo'lganligi sababli, ko'plab nizolarni yuzaga keltirishadi. Ko'ngillari o'ta nozik. Ular o'zlariga ishonchhsiz, tasalliga muhtojdirlar.

FORMULARAR – 406, 415, 424, 433, 442, 451, 460.

Bundan tashqari, 415 – nazmiy iqtidor egalariga mansub; 424 – o'z ishini o'ta puxta qiladigan kishilarga taalluqli, ularni "Qanday qilib yomon ishlash mumkinligini tasavvur qila olmayman!", degan jumlesi ajratib turadi.



4-tur. OLIMLAR



Bundaylar voqeа-hodisalarning muhim tomonlarini aniqlash uchun ularning juz'iy tomonlarini fikran bir chekkaga qo'yib tahlil qila oladilar. Konseptual tafakkurga, har narsaga o'zining qarashlarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega. Ruhan xotirjam. O'z xatti-harakatlarini aql bilan muvofiqlashtirib turadi.

FORMULARAR – 307, 316, 325, 334, 343, 352, 361, 370.

Bundan tashqari, 316 – global nazariyalar yaratish qobiliyatiga yoki ulkan hamda murakkab ishlarni muvofiqlashtirish salohiyatiga ega; 325 – bular hayotga, sog'liqqa, biologiya va meditsinaga oid bilimlarga o'chligi bilan ajralib turadi. Ular kino, sirk, rejissura, multiplikatsiya kabi sintetik san'at bilan ham shug'ullanadilar.

5-tur. INTUITIV

Bu toifadagi odamlar sezgir asab tizimiga ega bo'lib, tez holsizlanadi. Bir faoliyatdan boshqasiga ko'chishni talab etadigan sohalarda yaxshi ish beradilar. Odatda, o'zini mazlumlar himoyachisi sifatida ko'rsatadi.

Yangilikni tez qabul qiladigan, altruist (Altruizm – axloqiy tushuncha, uning negizida boshqa kishilarga xolis xizmat qilish, ularning baxt-saodati uchun o'z shaxsiy manfaatlarini qurban qilish yotadi. Ushbu terminni falsafaga egoizm tushunchasining ziddi ma'nosida O.Kont kiritgan), o'zgalarga g'amxo'r. Yaxshigina qo'l ko'nikmalariga va ko'rgazmali tasavvurga ega. Bu esa o'z navbatida texnikaning ijodiy turlarida ish olib borishga imkon beradi. Aksariyat hollarda o'zlarining axloq me'yorlarini ishlab chiqadilar. Erkiga tajovuz qiladigan har narsaga salbiy munosabat bildirishadi.

FORMULARAR – 208, 217, 226, 235, 244, 253, 262, 271, 280.

Bundan tashqari, 235 – psixologlar va psixologiyaga yuqori qiziqish bilan qaraydiganlar orasida ko'p uchraydi; 244 – adabiy ijod salohiyatiga ega odamlar; 217 – kashfiyotchilik qobiliyatları bor kishilar; 226 – yangilikka muhtojlik sezadigan va o'z oldiga yuqori maqsadlar qo'yadiganlar orasida uchraydi.



6-tur. KASHFIYOTCHI, KONSTRUKTOR, RASSOM



Bundaylar voqeа-hodisalarning muhim tomonlarini aniqlash uchun ularning juz'iy tomonlarini fikran bir chekkaga qo'yib tahlil qila oladilar. Konseptual tafakkurga, har narsaga o'zining qarashlarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega. Ruhan xotirjam. O'z xatti-harakatlarini aql bilan muvofiqlashtirib turadi.

FORMULARAR – 307, 316, 325, 334, 343, 352, 361, 370.

Bundan tashqari, 316 – global nazariyalar yaratish qobiliyatiga yoki ulkan hamda murakkab ishlarni muvofiqlashtirish salohiyatiga ega; 325 – bular hayotga, sog'liqqa, biologiya va tibbiyotga oid bilimlarga o'chligi bilan ajralib turadi. Ular kino, sirk, rejissura, multiplikatsiya kabi sintetik san'at bilan ham shug'ullanadilar.

7-tur. EMOTIV

Bu toifa kishilari hamdardlik xususiyatiga ega, kinofilmlarning qynoqqa soladigan kadrlarini ko'rishi og'ir kechadi. Kutilmagan hodisalardan es-hushini yo'qotib qo'yishadi. Boshqalarning dardi va tashvishiga xayrixoh, achinganidan ruhan tez toliqadi. Oqibatda, o'zlari qiyin ahvolga tushib qoladilar.

FORMULARAR – 550, 451, 460, 352, 361, 370, 253, 262, 271, 280, 154, 163, 172, 181, 190, 055, 064, 073, 082, 091.



8-tur. EMOTIV TURNING AKSI

Bu toifa odamlari birovlar dardini tushunmaydi, ularga o'z ta'sirini, hukmini o'tkazishga harakat qiladilar.

Yaxshi mutaxassis bo'lsa, o'zi zarur deb hisoblagan ishni qilishga boshqalarni majbur eta oladi. Ba'zan bag'ritosh, vaziyatga, o'z muammolariga o'ralashib qolishadi.

FORMULARAR – 901, 802, 703, 604, 505, 406, 307, 208, 109.



TESTGA IZOH

Ushbu diagnostikaning nisbatan ishonchsizligiga qaramay, mazkur metodika psixolog bilan mijoz o'rtaida yaxshi aloqa vositasi bo'lishi mumkin. Individual tavsif berish chog'ida quyidagi savollarni berishni o'rinci, deb hisoblaymiz (odatda tasdiq javobi beriladi):

*Bo'yin bo'lsa – ko'ngli nozikmisiz? Sizni xafa qilish osonmi?
Quloq bo'lsa – sizni eshitishni biladigan odam deb hisoblashadimi?
Cho'ntak bo'lsa – bolalaringiz bormi?
Agar biron bir rasmda bosh kiyimi bo'lsa – kimgadir majburan yon bosib, endi afsusdamisiz?
Agar uchala rasmda ham bosh kiyimi bo'lsa – o'zingizni qo'llingiz bog'langanday, choraszday his qilayapsizmi?
Yuz to'liq chizilgan bo'lsa – muloqotchan odammisiz?
Birgina og'iz bo'lsa – Sergapmisiz?
Birgina burun bo'lsa – hidga sezgirmisiz? Atirni xush ko'rasizmi?
Odam tanasida aylanalar bo'lsa – kimgadir buyruq berish majburiyatningiz bormi?*



SOTSIOMETRIYA METODIKASI



Jeykob Levi Moreno
psixiatr, psixolog va sotsiolog

Sotsiometriya metodikasining asoschisi amerikalik psixiatr va ijtimoiy psixolog D. J. Moreno hisoblanadi.

Sotsiometriya yordamida guruhning norasmiy tarkibi va undagi psixologik muhitni aniqlash mumkin.

Metodikani o'tkazishdan maqsad: guruhdagi shaxslararo munosabatlarda simpatiya (yoqish) va antipatiya (yoqmaslik)lik, guruhdagi jipslik, norasmiy munosabatlarni tadqiq etishga mo'ljallangan. Shuningdek, metodika yordamida guruhdagi (kichik guruhchalardagi) norasmiy liderlar, munosabatlarni va boshqa xususiyatlarni aniqlash mumkin.

Metodikani o'tkazish tartibi:

Metodika ikki xil shaklda o'tkaziladi. Birinchi shakli noparametrik tarzda metodikani o'tkazishda sinaluvchilarga o'z guruhidan tanlaydigan kishilarning soni chegaralab qo'yiladi. Sinaluvchining oldiga guruh a'zolarining ro'yxati qo'yilib, shu kishilarni o'ziga yoqish yoki yoqmaslik darajasiga qarab raqamlab chiqish taklif etiladi. Noparametrik metodikani noqulaylik tomoni shundaki, guruh a'zolari soni 15-16 tadan oshgandan so'ng sotsiometrik tanlovlар sonini hisoblash qiyinlashib qoladi. Bunday vaziyatlarda elektron hisoblash mashinalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Noparametrik metodikaning yana bir noqulayligi, shaxs guruhidagi 20-25ta tengdoshlarini obyektiv ravishda baholashga, munosabatini bildirishga qisqa vaqt ichida qynalib, tasodifiy tanlov bajarishi mumkin.

Metodikaning ikkinchi shakli parametrik tarzdagi tanlovlар bo'lib, shaxsga o'zi faoliyat ko'rsatayotgan guruhdan 3-5 tagacha kishilarni (o'ziga yoqqan) tanlash taklif etiladi. Ya'ni, tanlov soni 3-5 ta kishi bilan chegaralanadi.

Parametrik tarzdagi tanlovlар

Tadqiqotchilarning fikricha, parametrik tarzdagi tanlovlар sodda, ishonchli bo'lib, muhim tanlovlар sonini va qiymatlarini hisoblashni osonlashtiradi.

Tanlovlар sonining chegaralanganligi (3-5 kishi) shaxsning tanlovlarga jiddiy e'tibor bilan yondashishiga sabab bo'ladi.

Sotsiometriya metodikasi quyidagi maqsadlarda foydalilanadi:

Guruhdagi jipslik yoki tarqoqlikni aniqlash;

Guruh a'zolari orasidagi simpatiya va antipatiyani aniqlash;

Guruhdagi norasmiy liderlar va yakkalanib qolganlarni aniqlash.

Guruh a'zolarining o'zaro munosabatlaridagi mavqeyini (statuslari)ni aniqlash.

Sotsiometriya tanlovlарini o'tkazishda eksperimentator tomonidan sinaluvchilarga beriladigan savollar mezonlarining ahamiyati katta.

Bu mezonlar quyidagi shaklda bo'lishi mumkin:

1) Guruhdagi tengdoshlaringizdan o'zingizga yoqqan uch kishini uyingizga mehmonga chaqirmoqchisiz. Siz ulardan qaysi birini birinchi o'rinda, qaysinisini ikkinchi va qaysinisini uchinchi o'rinda taklif etasiz?

2) Guruh yetakchisini saylash uchun, guruhda birinchi, ikkinchi, uchinchi o'rinda kimlarni taklif etasiz?

Sotsiometriya metodikasini o'tkazish uchun sinaluvchilarga testni o'tkazish maqsadi qisqacha tushuntiriladi. Tanlovlarni birov bilan maslahatlashmasdan mustaqil ravishda amalga oshirish talab qilinadi. Iloji boricha, har bir stolda bitta sinaluvchi test savollariga javob yozishi ta'minlanishi zarur.

Har bir o'quvchi to'ldirgan «sotsiometrik kartochkalar» asosida «sotsiomatrtsa» (sotsiometrik matrtsa) to'ldiriladi.

O'tkazish tartibi:

Kichikroq qog'ozga o'quvchining ismi va familiyasi yozilib, tagiga chiziladi. Sinaluvchiga: Eng yaqin do'stlaringdan 3 tasining ismi va familiyasini ketma-ket shu qog'ozga yozing, birinchi o'ringa kimni qo'yasiz, ikkinchi o'ringa kimni va hokazo, deb aytildi. Bu qog'ozlar to'planib, natijalar umumlashtiriladi va sotsiometrik matrtsa tuziladi.

| № | Kim tanlaydi | Kimni tanlaydi | | | | | | |
|---|--------------|----------------|---|---|---|---|---|---|
| | | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| 1 | Axmedov | X | | | 2 | | 1 | 3 |
| 2 | Botirov | 2 | X | | 3 | | 1 | |
| 3 | Valiev | 2 | | X | | | 1 | 3 |
| 4 | Sobirov | 2 | | 3 | X | | 1 | |
| 5 | Doniyorov | | 2 | | 1 | X | 2 | |
| 6 | Sultonov | | 1 | 2 | | | X | 3 |
| | Jami: | 3 | 2 | 2 | 3 | 0 | 5 | 3 |

Har xil statuslarni quyidagicha aniqlaymiz:

O'rtachadan ikki barobar ko'p tanlov olsa – «yulduz»lar hisoblanadi.

St > m + 2 k = 6ta

O'rtachadan bir-bir yarim barobar ko'p tanlov olsa – «yoqimtoylar».

St > m + 1 (1,5) k= 5-4ta

O'rtacha tanlov olgan = o'rtacha (+3)

O'rtachadan 1 yoki 1,5 barobar kam tanlov olganlar «qabul qilinmaganlar»

St > m - 1 (1,5) = 1-2ta

Umuman tanlov olmaganlar «yakkalanib qolganlar» deyiladi.

St > m - 2 k= 0 ta tanlov


Sotsiometrik tanlov jarayonida qog'ozning orqa tomoniga «Ahmadjon, sen nima uchun Karimni tanlading» deb so'raladi va javobi yozib qo'yiladi. Bu «tanlov motivlarini» aniqlash jarayonidir.

SOTSIOPRAGMMA METODI



Guruhning ichidagi **kichik guruhchalarni aniqlash**, kichik guruhchalarda o'zaro munosabatlar (statuslar), lider va «yakkalanib qolganlar»ning shaxslararo munosabatlarini yaqqolroq va aniq ko'rish uchun sotsiogrammadan foydalilanildi.

Sotsiogramma – nishon



Guruhda har bir o'quvchining o'rni, mavqeyi (statusini), boshqa tengdoshlar bilan munosabatlarini yanada yaqqolroq tasavvur etish uchun guruh a'zolarining tanlovlari ifoda etilgan sotsiogramma "karta monogramma" tuziladi.

«Karta monogramma» guruh jurnali asosida tuzilib, har bir o'quvchining tengdoshlari bilan munosabatini ifoda etadi. Sotsiometriya metodikasining natijalari aniq, ishonchli bo'lishi uchun metodikani o'quv yilining o'ttalarida (*o'quvchilar bir-birlarini yaxshi o'rganganlaridan so'ng*) o'tkaziladi. Metodika bir yilda bir necha marta o'tkaziladi va chiqqan natijalar umumlashtiriladi.



“SHAXSNING KOMMUNIKATIV VA TASHKILOTCHILIK MOYILLIKLARI DIAGNOSTIKASI” METODIKASI

Ushbu metodika o'quvchilar bilan olib boriladigan psixodiagnostik chora-tadbirlar va kasbga yo'naltirish ishlarida keng qo'llaniladi. Uni individual tarzda ham, guruhda ham o'tkazish mumkin.

Ko'rsatma: quyidagi savollarga javob bering, savolga «ha» deb javob bersangiz, tegishli tartib raqami oldiga «+» belgisini, «yo'q» deb javob bersangiz, «-» belgisini qo'ying.

Savollar:

1. Doim suhbatlashib turadigan do'stlaringiz ko'pmi?
2. Ko'p hollarda do'stlaringizni o'z fikringizga og'dira olasizmi?
3. Do'stlaringizdan biri sizni ranjitsa, uzoq vaqt xafa bo'lib yurasizmi?
4. Murakkab vaziyatlarda o'zingizni o'nglab olishingiz doim qiyin kechadimi?
5. Har xil yangi odamlar bilan tanishishga intilasizmi?
6. Ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanish sizga yoqadimi?
7. Vaqtningizni odamlar bilan emas, ko'proq kitob o'qish bilan yoki boshqa ishlar bilan o'tkazishni yoqtirishingiz rostmi?
8. Biror maqsadga erishish yo'lida oldingizda to'siqlar paydo bo'lsa, niyatingizdan tezda voz kechasizmi?
9. Yoshi sizdan ancha katta bo'lgan odamlar bilan oson aloqa o'rнata olasizmi?
10. Do'stlaringiz bilan har xil o'yinlar, ko'ngilochar tadbirlarni uyushtirishni yaxshi ko'rasizmi?
11. Yangi jamoaga qo'shilib olishingiz qiyinmi?
12. Bugun bajarilishi mumkin bo'lgan ishlarni tez-tez ertaga qoldirib turasizmi?
13. Notanish odamlar bilan oson aloqa o'rнata olasizmi?
14. Do'stlaringiz sizning fikringizga monand ish qilishini talab etasizmi?
15. Siz uchun yangi bo'lgan jamoaga qo'shilib ketishingiz qiyinmi?
16. Do'stlaringiz o'z majburiyatlarini, vazifalarini bajarmaganda, ular bilan «san-man»ga bormasligingiz rostmi?
17. Imkoniyat bo'ldi deguncha, yangi odam bilan tanishishga, suhbatlashishga intilasizmi?
18. Muhim masalalarni hal etishda, ko'pincha, tashabbusni o'z zimmangizga olasizmi?

19. Atrofdagilar g'ashingizga tegadimi, yolg'iz qolishni xohlaysizmi?
20. Notanish joyda o'zingizni tez o'nglab ololmasligingiz rostmi?
21. Doim odamlar orasida bo'lislisizmi?
22. Boshlagan ishni oxiriga yetkaza olmasangiz asabiylashasizmi?
23. Biror yangi odam bilan tanishmoqchi bo'lganiningizda, sizda uyalish, tortinish hislari paydo bo'ladimi?
24. Do'stlaringiz bilan ko'p suhbatlashishdan charchaysizmi?
25. Jamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlarni yoqtirasizmi?
26. Do'stlaringiz manfaatlariga tegishli masalalarni hal etishda tez-tez tashabbuskor bo'lib turasizmi?
27. Siz unchalik yaxshi tanimaydigan odamlar davrasida o'zingizni ishonchhsiz his etasizmi?
28. Kamdan kam hollarda fikringiz to'g'ri ekanligini isbotlashga urinasizmi?
29. Sizningcha notanish odamlar guruhiga ko'tarinki kayfiyatni olib kirish osonmi?
30. Ijtimoiy faoliyatda ishtirok etasizmi?
31. Tanishlaringiz soni ozgina bo'lisligha intilasizmi?
32. Do'stlaringiz sizning fikringizga qo'shilmasa, baribir, uni isbotlashga urinasizmi?
33. Notanish odamlar jamoasida o'zingizni erkin his etasizmi?
34. Turli tadbirlarni tashkil etishga jon-u dildan kirishasizmi?
35. Ko'pchilik oldida so'zlayotganiningizda o'zingizni erkin his etasizmi?
36. Turli uchrashuvlarga tez-tez kech qolib turasizmi?
37. Ko'pincha do'stlaringiz diqqat-e'tibori markazida bo'lib turasizmi?
38. Notanish odamlar bilan suhbatlashganiningizda ko'pincha, o'zingizni noqulay his etasizmi?
39. Do'stlaringizning katta davrasida o'zingizni ishonchli his etishingiz rostmi?

Natijalarini qayta ishlash

1. Sinaluvchilar javoblarini kalit bilan solishtirish va o'zaro mos javoblar miqdorini aniqlash kerak.

KALIT

| Kommunikativlikka moyillik | | | | Tashkilotchilikka moyillik | | | |
|----------------------------|-------|-------|-------|----------------------------|-------|-------|-------|
| 1. + | 3. - | 5. + | 7. - | 2. + | 4. - | 6. + | 8. - |
| 9. + | 11. - | 13. + | 15. - | 10. + | 12. - | 14. + | 16. - |
| 17. + | 19. - | 21. + | 23. - | 18. + | 20. - | 22. + | 24. - |
| 25. + | 27. - | 29. + | 31. - | 26. + | 28. - | 30. + | 32. - |
| 33. + | 35. - | 37. + | 39. - | 34. + | 36. - | 38. + | 40. - |

2. Kommunikativlikka moyilliklar koeffitsiyenti /Kk/ni va tashkilotchilik moyilliklari /Kt/ni quyidagi formulalar orqali aniqlash.

Kk = o'zaro mos javoblar miqdori X 0,05

Kt = o'zaro mos javoblar miqdori X 0,05

Olingen natijalar 0 va 1 oralig'ida joylashadi. Ko'rsatkichning 1 ga yaqin bo'lishi kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari yuqori ekanini, 0 ga yaqin bo'lishi esa past ekanligini ko'rsatadi.

Ko'rsatkichlarni baholash uchun quyidagi jadvaldan foydalaniлади.

| Kk | Kt | Baho |
|-------------|-------------|------|
| 0,1 – 0,45 | 0,2 – 0,55 | 1 |
| 0,46 – 0,55 | 0,56 – 0,65 | 2 |
| 0,56 – 0,65 | 0,66 – 0,70 | 3 |
| 0,66 – 0,75 | 0,71 – 0,80 | 4 |
| 0,76 – 1,00 | 0,81 – 1,00 | 5 |

Baholar tavsifi

1. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari sust.
2. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari o'rtacha darajaga yetmaydi. Tashabbusni o'z zimmasiga olmaydigan, vaqt ni tanholikda o'tkazishni hush ko'radigan, notanish odamlar bilan suhbatlashayotganda, ko'pchilik oldida biror narsani aytib berayotganda o'zini noqulay his etadigan, xafagarchilikni og'ir o'tkazadigan odam.
3. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari o'rtacha. Odamlar bilan aloqa qilishga intiladigan, tanishlari doirasiga chegaralar qo'ymaydigan, o'z fikrini himoya qiladigan odam. Ammo uning bu xususiyatlari barqaror emas.
4. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari yuqori darajada. Yangi sharoitda o'zini yo'qotib qo'ymaydigan, tanishlari doirasini doim kengaytirishga intiluvchi, muloqotda tashabbuskor, ijtimoiy faoliyatda jonbozlik bilan ishtirok etadigan, murakkab vaziyatda mustaqil qaror qabul qila oladigan odam.
5. Kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari juda yuqori. Kommunikatsiya va tashkilotchilik ehtiyoji bo'lib qolgan, doim uni qondirishga intiladigan, yangi jamoada, yangi muhitda o'zini juda erkin tutadigan, tashabbuskor, o'z fikrini oxirigacha himoya qiladigan, turli o'yinlarni, tadbirlarni uyuştirishni yaxshi ko'radigan odam.





“QIZIQISHLAR XARITASI” METODIKASI



Maqsad

sinaluvchilarning qiziqish va moyilliklarini aniqlash.

Qiziqliklaringiz sohasi va yo'nalishini aniqlashga qaratilgan quyidagi savollarning har birini diqqat bilan o'qing va mumkin qadar aniq javob berishga harakat qiling.

Agar savolda so'ralsan mazmun, sizga, har tomonlama ma'qul tushsa va juda yoqsa, unda javob varaqasining tegishli katakchasiga ikkita plyus (++) belgisini qo'yasiz.

Agar savol mazmuni shunchaki yoqsa, unda bitta plyus (+), agar yoqish-yoqmasligini bilmasangiz yoki ikkilansangiz, unda nol (0) qo'yasiz.

Agar savol mazmuni sizga ma'qul bo'lmasa, minus (-), agar juda yoqmasa, ya'ni, bu faoliyatni yomon ko'rsangiz, unda ikkita minus (--) belgisini qo'yasiz.

Vaqt chegaralanmagan, lekin diqqat bilan, savollarni tushirib qoldirmay, tez-tez o'ylab javob bering.



Savollar:

Quyidagi faoliyatlar bilan shug'ullanishni yoqtirasizmi? Havas qilasizmi? Istaysizmi?

1. O'simliklar va hayvonlarning hayoti bilan shug'ullanish, tanishish.
2. Geografiya darsligi, geografiyaga oid kitoblarni o'qish
3. Geologik ekspeditsiyalar haqidagi badiiy yoki ilmiy-ommabop adabiyotlar o'qish.
4. Odam anatomiysi va fiziologiyasi darslari va shu sohaga oid darsliklar, kitoblarni o'qish.
5. Uy-ro'zg'or darslari yoki ro'zg'or ishlariga taalluqli vazifalar.
6. Fizikadagi yangi kashfiyotlar va buyuk fiziklarning hayoti, ijodi haqidagi ilmiy-ommabop adabiyotlar o'qish.
7. Kimyo fanidagi yangi ixtiolar yoki buyuk kimyogarlar hayoti va ijodi haqida o'qish.
8. Texnika sohasiga tegishli jurnallar o'qish (masalan, "Sirli olam", "Fan va turmush").
9. Ilmiy-ommabop jurnallardagi elektronika va radiotexnika bo'yicha yutuqlar va yangiliklar haqida maqolalar o'qish.
10. Har xil metallar va ularning xususiyatlari bilan tanishish.
11. Yog'ochlarning har xil turlari va ularni amalda qo'llash haqida bilish.
12. Qurilish sohasidagi yutuqlarni bilish.
13. Har xil turdag'i transport (avtomobil, temiryo'l) haydovchilari haqida kitoblar o'qish, filmlar ko'rish).
14. Uchuvchi va kosmonavtlar haqida kitoblar o'qish, filmlar ko'rish.
15. Harbiy texnika bilan tanishish.
16. Tarixiy voqealar va tarixiy arboblar haqidagi kitoblar o'qish.
17. O'zbek va jahon adabiyoti klassiklarini o'qish.
18. Gazeta va jurnallarning maqola va ocherklarini muhokama qilish.
19. Sinfda va mакtabda bo'layotgan ishlar va voqealarni muhokama qilish.
20. Maktab hayoti (tarbiyachi, o'qituvchi, sardorlarning faoliyati) haqida kitoblar o'qish.
21. Militsionerlik faoliyati haqida filmlar ko'rish, kitob o'qish.
22. O'qiyotgan, ishlayotgan yoki yashayotgan joyingizni chirolyi qilib bezash, narsalarni saranjomlash, tartibga keltirish.
23. "Qiziqarli matematika", "boshqotirmalar" haqidagi maqola va kitoblar o'qish.
24. Iqtisodiy geografiyanı o'rganish.
25. Chet tili mashg'ulotlari.
26. Buyuk rassomlar hayoti, tasviriy san'atning rivojlanish tarixi bilan tanishish.
27. Mashhur teatr va kino aktyorlarining hayoti bilan tanishish, ular bilan uchrashish, fotosuratlarini yig'ish.
28. Mashhur musiqachilarining hayoti va ijodi bilan, musiqa san'ati nazariyasiga doir masalalar bilan tanishish va o'rganish.

29. Sport va buyuk sportchilar haqida jurnal, gazeta, kitoblar o'qish.
30. Biologiya, botanika, zoologiyani o'rganish.
31. Geografik ixtiolar va ma'lumotlar orqali har xil mamlakatlar bilan tanishish.
33. Odamlar qanday qilib kasalliklar bilan kurashishlarini o'rganganlari haqida, tibbiyot sohasidagi yutuqlar haqida o'qish.
34. Yengil sanoat korxonalariga ekskursiyaga borish.
35. "Fiziklar hazillashadilar", "Qiziqarli fizika" sohasida kitoblar o'qish.
36. Tabiatdagi kimyoviy hodisalarni kuzatish, kimyoviy tajribalar o'tkazish, kimyoviy reaksiyalarning borishini kuzatish.
37. 3amонавиј texnikaning eng so'nggi yutuqlari bilan tanishish (radio va teleko'rsatuvlarni eshitib, ko'rib, gazetalardagi maqolalarni o'qib).
38. Radiotexnika to'garaklariga qatnashish yoki elektriklarning ishi bilan tanishish.
39. Metallarga ishlov berishda ishlatiladigan har xil o'lchov asboblari bilan tanishish. Ular bilan ishslash.
40. Yog'ochdan uy jihozlari tayyorlash jarayonini kuzatish, mebellarning yangi namunalarini o'rganish.
41. Quruvchilar bilan uchrashish, ularning faoliyatini kuzatish.
42. Yo'l harakati vositalari haqida ommabop adabiyotlarni o'qish.
43. Dengizchilar haqida kitoblar o'qish, filmlar ko'rish.
44. Harbiy mazmundagi filmlarni ko'rish, kitob o'qish, katta to'qnashuvlar va janglar tarixi bilan tanishish.
45. O'zimizda va chet el miqyosida bo'layotgan, siyosiy voqealarni muhokama etish.
46. Adabiy-tanqidiy maqolalarni o'qish.
47. Radio va televizordan har xil yangiliklar va axborot ko'rsatuvlarini eshitish va ko'rish.
48. Tuman, shahar, respublikada bo'layotgan kundalik voqealardan xabardor bo'lish.
49. O'rtoqlaringizga darslarini bajarishda yordam berish va tushuntirish ishlarini olib borish (agar o'zlari qila olmasalar).
50. Do'stlar, tanishlar yoki adabiy qahramonlarning qilmishlarini to'g'ri va haqqoniylahlil etish va baholash.
51. Oilaning oziq-ovqat bilan ta'minlanishiga ahamiyat berish, sayohatlar chog'ida hamma uchun ovqatlanishni tashkil etish.
52. Matematika sohasidagi kashfiyotlar, buyuk matematiklar hayoti va faoliyati haqida ilmiy ommabop adabiyotlarni o'qish.
53. Xalq xo'jaligi rejalarining bajarilishi bilan qiziqish.
54. Chet tilida badiiy adabiyotlarni o'qish.
55. Tahrir hay'ati a'zosi bo'lish, gazetalarni badiiy bezash bilan shug'ullanish.
56. Drama teatri va yosh tomoshabinlar teatriga borish.
57. Opera yoki simfonik musiqalarni eshitish.
58. Sport musobaqalarini tomosha qilish, sportga oid radio va teleko'rsatuvlarni eshitish, ko'rish.
59. Biologiya to'garagiga qatnashish.
60. Geografiya to'garagida shug'ullanish.

61. Yerdagи mineralлarning geografik tarqalishi haqida tasvirlar, ma'lumotlar yig'ish va xaritalar tuzish.
62. Odam organizmi xislatlarini, kasallikning paydo bo'lish sabablari va davolash usullarini o'rgatish.
63. Pazandalik to'garagiga qatnashish, uyda ovqat tayyorlash.
64. Fizikadan tajribalar o'tkazish.
65. Eritmalarni tayyorlash, reaktivlarning og'irligini o'lchash.
66. Hap xil mexanizm (soat, dazmol)larni yig'ish, tuzatish.
67. Aniq o'lchov asboblari (ossillograf, ampermetr, voltmetr)ni ishlatalish, ular yordamida har xil hisoblarni olib borish.
68. Metalldan har xil detallar va buyumlar yasash.
69. Yog'ochdan har xil qismlar va ashyolar yasash yoki yog'ochni badiiy bezash (o'ymakorlik, kuydirish, naqsh berish).
70. Har xil imoratlar eskizlarini, qurilishlarning chizmalarini bajarish.
71. Yosh temiryo'lchilar yoki avtohavaskorlar to'garagiga qatnashish.
72. Parashyutchilar seksiyasida, aviamodelchilar to'garagida ishtirok etish yoki aviaklub ishida qatnashish.
73. O'q-yoy otish to'garagida shug'ullanish.
74. Har xil xalqlar va mamlakatlarning kelib chiqish tarixini o'rganish.
75. Adabiyot fanidan sinf va uy insholari yozish.
76. O'zga odamlarning harakatlari, xulqi va hayotini kuzatish.
77. Jamoat topshiriqlarini, biron bir ishni bajarish, tashkil etish uchun o'rtoqlarini yusushtirish, birlashtirish.
78. Kichik yoshdagi bolalarga qarash, ularga kitob o'qib berish, shug'ullanish, har xil hikoyalar gapirib berish yoki biron bir ishda ularga ko'maklashish.
79. Tengdoshlar va kichik bolalar orasida tartib va muntazam intizom o'rnatish.
80. Sotuvchi, oshpaz, ofitsiantlarning faoliyatini kuzatish.
81. Matematika to'garagida shug'ullanish.
82. Ishlab chiqarishning rivojlanish masalalarini o'rganish, ishlab chiqarish korxonalarida hisob-kitob va rejalah borasidagi yutuqlar haqida bilish.
83. Chet tilidagi lug'atlar bilan ishlash, yaxshi tanish bo'limgan tilda o'ziga xos murakkab nutq xususiyatlarini tahlil qilish.
84. Muzey va badiiy ko'rgazmalarga borish.
85. Tomoshabinlar oldida, sahnada badiiy faoliyat ko'rsatish.
86. Biron bir musiqiy asbobda o'ynash.
87. Sport o'yinlarini o'ynash.
88. O'simlik va hayvonlarning rivojlanishini kuzatib, yozib borish.
89. Mustaqil ravishda geografik xaritalarni tuzish, har xil geografik ma'lumotlarni to'plash.
90. Geologiya muzeylari uchun ko'rgazma materiallar, minerallar to'plami yig'ish.
91. Shifokor, hamshira, dorishunoslar faoliyati bilan tanishish.
92. Bichish va tikish to'garagiga qatnashish, o'zingiz va oila a'zolaringizga tikish.

93. Fizika to'garagida shug'ullanish, yoki fizika bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlarga qatnashish.
94. Kimyo to'garagida shug'ullanish yoki kimyo bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlarga borish.
95. Texnika to'garaklaridan birida shug'ullanish (samolyot, dengiz kemalari va boshqa inshootlarning modelini yasash).
96. Elektr asboblari, apparatlari va har xil elektr mashinalarining tuzilishi bilan tanishish, ishini kuzatish har xil radiouskuna va o'lchov asboblari bilan shug'ullanish.
97. Mehnat darslarida metallga ishlov berish ustaxonasida shug'ullanish.
98. "Mohir qo'llar" yoki yog'ochga ishlov berish to'garagida shug'ullanish.
99. Qurilishda bo'lish, qurilish jarayoni va bezash ishlarini kuzatish.
100. Transport va yo'lovchilarning yo'l harakati qoidalarini bajarishlarini kuzatish.
101. Eshkak eshuvchi, yelkanli qayiqchi, akvalangchi (g'avvoslar) to'garaklarida va suvda cho'kayotganlarni qutqarish brigadasida qatnashish.
102. Harbiy (masalan, "shunqorlar") o'yinlarida ishtirok etish.
103. Tarix muzeylariga borish, madaniy obidalar va yodgorliklar bilan tanishish.
104. Adabiyot to'garaklarida shug'ullanish, adabiyotdan qo'shimcha mashg'ulotlarda ishtirok etish.
105. Shaxsiy kundalik tutish.
106. Xalqaro ahvol haqida sinfda axborot berish.
107. Tarbiyachilik (masalan, sardorlik) ishlarini bajapish.
108. Odamlarning xatti-harakatlari va odatda yashiradigan ba'zi bir xulqlarining sabablarini ochish, aniqlash.
109. Do'konda xaridorlarga kerakli buyumlarni tanlashda yordam berish.
110. Matematikadan qiyin masalalarni yechish.
111. Pullik kirim-chiqimlarning aniq hisob-kitobini olib borish.
112. Chet tili to'garaklarida shug'ullanish yoki chet tilidan qo'shimcha darslarga qatnashish.
113. Badiiy to'garaklarda shug'ullanish.
114. Badiiy-havaskorlik ko'riklarida ishtirok etish.
115. Xorda ashula aytish yoki musiqa to'garaklarida qatnashish.
116. Sport seksiyalarining birida shug'ullanish.
117. Biologiya olimpiadalarida qatnashish yoki o'simliklar va hayvonlar ko'rgazmasini tayyorlash.
118. Geografik ekspeditsiyada qatnashish.
119. Geologik ekspeditsiyada qatnashish.
120. Bemorlarning ahvolini kuzatish, g'amxo'rlik qilish, tegishli yordam berish, ahvollarini yengillashtirish choralarini ko'rish.
121. Oshpazlik va qandolatchilik ko'rgazmalariga qatnashish yoki borish.
122. Fizika olimpiadasida qatnashish.
123. Kimyo fanidan qiyin masalalar yechish, olimpiadalarda qatnashish.
124. Texnik sxema va chizmalarni tahlil qilish, ularni mustaqil ravishda tuzish.
125. Murakkab radiosxemalarni tahlil qilish.

126. Ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyaga borish, uskunalar va dastgohlarning yangi turlari bilan tanishish, ularda ishlash yoki ta'mirlash ishlarini kuzatish.
127. O'z qo'li bilan yog'ochdan biror narsa yasash.
128. Qurilish ishlarida imkon darajada yordamlashish.
129. Avtomobil, trolleybuslarga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarida baholi-qudrat qatnashish.
130. Har qanday ob-havo sharoitida ham "tez yordam" samolyotda uchish yoki katta tezlik bilan uchuvchi samolyotlarni boshqarish.
131. Qat'iy o'rnatilgan tartib bo'yicha yashash, kun tartibiga qat'iy rioya qilish.
132. Tarix to'garagida shug'ullanish, tarixiy ma'lumotlarni toplash, ma'ruzalar qilish.
133. Adabiyot manbalari bilan ishlash, o'qiganlari haqida taassurotlarni kundalikka yozib borish.
134. Munozaralarda va kitobxonlar konferensiylarida qatnashish.
135. O'quvchilar jamoatchiligi yig'ilishi yoki majlislarini tayyorlash va o'tkazish.
136. Tarbiyasi yomon bolalarga ta'sir ko'rsatish, bolalar va o'smirlar tarbiyasi masalalari haqida kattalar bilan muhokama qilish.
137. Miliitsiya ishiga yordam berish, "Miliitsyaning yosh do'sti" to'garagiga a'zo bo'lish.
138. Doim turli toifalardagi odamlar bilan muloqotda, aloqada bo'lish.
139. Matematika olipiadalarida qatnashish.
140. Tovarlar va ular narxining kelib chiqishini bilish, oylik maosh, mehnatni tashkillashtirishni tushunishga harakat qilish.
141. Do'stlari bilan chet tilida gaplashish.
142. Tasviriy san'at ko'rgazmalarida qatnashish.
143. Teatr to'garagiga borish.
144. Teatr ko'rik-tanlovlariiga qatnashish.
145. Sport musobaqalarida qatnashish.
146. Bog'da yoki tomorqada o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni tarbiyalash va parvarish qilish.
147. Joylarni xaritaviy (topografik) ko'rinishda suratlarini chizish.
148. Berilgan dastur bo'yicha murakkab va jiddiy topshiriqlarni bajarishga to'g'ri keladigan qiyin va uzoq muddatli sayohatlarga borish.
149. Shifoxona, poliklinika yoki dorixonada ishlash.
150. Oziq-ovqat yoki yengil sanoat korxonasida mutaxassis bo'lib ishlash (tikuvchi, bichuvchi, qandolatchi).
151. Fizikadan qiyin masalalar yechish.
152. Kimyoviy ishlab chiqarish korxonasida ishlash.
153. Texnik ijodiyot ko'rgazmasida ishtirot etish.
154. Elektroenergetika yoki radioelektronika sohasida ishlash.
155. Dastgoh, (stanok)da ishlash, har xil detallar, buyumlar tayyorlash.
156. Chizmalar asosida modellar, yog'ochsozlik ishlarini bajarish.
157. Qurilish brigadasida ishlash.

158. Yo'lovchi yoki yuklarni tashish, yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioxqa qilish.
159. Bo'ronli ob-havoda katta daryo yoki ochiq dengizda ishlash.
160. Harbiy injener yoki qo'mondon bo'lish.
161. Ona diyorning tarixiy obidalariga sayohat qilish.
162. Hikoyalar yozish, she'r va masal tuzish.
163. Devoriy gazeta yoki davriy matbuot uchun maqola yoxud ocherklar yozish.
164. Mehnat shanbaligida brigadaga boshchilik qilish.
165. Kichik bolalar uchun o'yinlar, bayramlar tashkil etish.
166. Yuridik tashkilotlarda ishlash (sud, prokuratura, advokatura huquqiy maslahatxonalarda).
167. Odamlarga har xil katta va kichik xizmatlar ko'rsatish.
168. Har doim matematik bilimlar talab qiladigan ishlarni bajarish.
169. Xalq xo'jaligi korxonalarining iqtisodi, rejalashtirilishi va moliyaviy ta'minlanishi sohasida ishlash.
170. Chet tilidan olimpiada, tanlov va konferensiyalarda qatnashish.
171. Tasviriy san'at ko'rgazmalarida ishtiroy etish.
172. Sahnada yoki kinoda o'ynash.
173. Musiqachi, musiqiy rejissor yoki musiqa darsidan o'qituvchi bo'lish.
174. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi yoki trener bo'lish.
175. Kibersport yoki work-out bilan shug'ullanish.
176. Koinotning turfa sirlaridan xabardor bo'lish.



JAVOB VARAQASI

Familiyasi _____ Ismi _____ sinfi _____

| | | | | | | |
|----|----|----|-----|-----|-----|------|
| 1 | 30 | 59 | 88 | 117 | 146 | 175 |
| 2 | 31 | 60 | 89 | 118 | 147 | 176 |
| 3 | 32 | 61 | 90 | 119 | 148 | ... |
| 4 | 33 | 62 | 91 | 120 | 149 | ... |
| 5 | 34 | 63 | 92 | 121 | 150 | ... |
| 6 | 35 | 64 | 93 | 122 | 151 | |
| 7 | 36 | 65 | 94 | 123 | 152 | |
| 8 | 37 | 66 | 95 | 124 | 153 | |
| 9 | 38 | 67 | 96 | 125 | 154 | |
| 10 | 39 | 68 | 97 | 126 | 155 | |
| 11 | 40 | 69 | 98 | 127 | 156 | |
| 12 | 41 | 70 | 99 | 128 | 157 | |
| 13 | 42 | 71 | 100 | 129 | 158 | |
| 14 | 43 | 72 | 101 | 130 | 159 | |
| 15 | 44 | 73 | 102 | 131 | 160 | |
| 16 | 45 | 74 | 103 | 132 | 161 | |
| 17 | 46 | 75 | 104 | 133 | 162 | |
| 18 | 47 | 76 | 105 | 134 | 163 | |
| 19 | 48 | 77 | 106 | 135 | 164 | |
| 20 | 49 | 78 | 107 | 136 | 165 | |
| 21 | 50 | 79 | 108 | 137 | 166 | |
| 22 | 51 | 80 | 109 | 138 | 167 | |
| 23 | 52 | 81 | 110 | 139 | 168 | |
| 24 | 53 | 82 | 111 | 140 | 169 | |
| 25 | 54 | 83 | 112 | 141 | 170 | |
| 26 | 55 | 84 | 113 | 142 | 171 | |
| 27 | 56 | 85 | 114 | 143 | 172 | |
| 28 | 57 | 86 | 115 | 144 | 173 | |
| 29 | 58 | 87 | 116 | 145 | 174 | |




XARAKTER XUSUSIYATINI ANIQLASHGA QARATILGAN TESTLAR




PSIXOGEOMETRIK TEST: “KIMSIZ: KVADRAT, AYLANA, TO’RTBURCHAK, UCHBURCHAK, ZIG-ZAG?”

Ushbu test shaxsga aloqador bir qancha muhim xarakterologik sifatlarni aniqlashga imkon beradi.



Tavsiya etilgan geometrik figuralardan qaysi biri Sizga yaqinligini belgilang va unga “1” raqami qo’ying. Qolganlarni ham yoqishiga qarab, 5 gacha baholab chiqing.

Endi Sizga xos bo’lgan psixologik xususiyatlar va fazilatlarni bilib oling.



Kvadrat

Hayotiy qadriyatları: tartib, ish, an'analar, reputatsiya.


Asosiy psixologik sifatlari:

Ijobiy

tartiblilik, intizom, o’z vaqtida
ishlarni bajaradigan,
ozoda-pokiza, qonunga
buysunuvchi, mehnatsevar,
chidamli, tirishqoq, qat’iyatli,
qarorlari qat’iy, so’zining ustida
turadigan, halol, oqil, aql bilan ish
ko’radigan, bosiq, tejamkor, pishiqliq;

Salbiy

salbiy – ko’ngliga har xil fikrlar
keladigan, o’ta talabchan,
mayda-chuydaga ham e’tibor
beradigan, jiddiy, chidamli, qaysar,
konservativ, yangilikdan
cho’chiydigan, fantaziysi
kambagal, pismiqroq.



Uchburchak

Asosiy qadriyatlari: *hokimiyat, liderlik, amal, mavqe, g'alaba, manfaat.*


Asosiy psixologik sifatlari:

Ijobiy

yaxshi lider, o'ziga mas'uliyatlarni oladigan, har narsada asosiy, mohiyatni ko'ruvchi, kuchini safarbar qila oladigan, g'alabaga erisha oladigan, o'ziga ishonchli, qat'iyatli, tavakkalchi, g'ayratli, to'g'riso'z, hissiyotga boy, aqli;

Salbiy

egoist, nazorat qilishni yaxshi ko'radigan, o'zgacha fikrlarga toqatsiz, ishga o'ta beriluvchan, har narsadan manfaat qidiradigan, qaysar, impulsiv, beshafqat, toqatsiz, qo'pol, berahm, jahli tez, zaharxanda.



Ayvana

Asosiy qadriyatlari: *insonlarga xizmat qilish, oila baxti va manfaatini ustun ko'radi, kirishimli.*

Asosiy psixologik sifatlari:

Ijobiy

muloqotga ehtiyoj, kirishuvchanlik, hammabop, mehribon, g'amxo'r, sadoqatli, kuchli ijtimoiy intuitsiyaga ega, empatiya hissi kuchli, bag'rikeng, qo'li ochiq, hissiyotlarga beriluvchan, bosiq, yuvosh, kechirimli, janjaldan yiroq yuruvchi;

Salbiy

o'zgalar fikriga tobeklik, betartib, o'ta yumshoq, talabchan emas, qat'iyatsiz, narsalarni ayamaydigan, laqma, sentimental, ko'ngli bo'sh.

To'rtburchak

Asosiy qadriyatlari: o'zgarish, dinamika, azart.

Asosiy psixologik sifatlari:

Ijobiy

intiluvchan, yangilikni qidiradigan,
qiziquvchan, yaxshi ta'lif
oladigan, ziyrak, sezgir,
ishonuvchan, samimi, dadil;

Salbiy

qat'iyatsiz, qarorlari mavhum, ish
va so'z birligi yo'q, yengiltak,
ishonuvchan, emotsional beqaror,
sodda, o'ziga bahosi past, lanj,
unutuvchan, kechirimli.

Zig-zag

Asosiy qadriyatlari: erkinlik, ijod, o'zgarish.

Asosiy psixologik sifatlari:

Ijobiy

yangilikka o'ch, ijodga intilish,
bilishga chanqoqlik, g'alayonchi,
xayolparast, optimist, kelajakka
intiluvchan, ruhi tetik,
tashabbuskor, aqli;

Salbiy

tartibsiz, qo'nimsiz, o'zgaruvchan,
o'zini "men"ini ustun qo'yish,
ishonchhsiz, qonunlarni buzuvchi,
realistik qarashning yo'qligi,
subutsiz, o'zini namoyishkorona
ko'rsatadigan, zahar, kesatib
gapiradigan.

Ushbu test o'z-o'zini tahlil qilish malakalarini mustahkamlaydi va o'zini tarbiyalash-ga yordam beradi.



TEMPERAMENTNI ANIQLASH TESTI

Sangvinik







Xolerik



Melanxolik



Flegmatik



Har bir inson tarbiya mahsuli bo'lish bilan birligida, tabiat tomonidan ato etilgan tug'ma biologik xususiyatlarga ham ega. Mazkur biologik xususiyatlar fan tilida temperament deb ataladi. Temperamentga xos sifatlar keyinchalik taraqqiyot jarayonida shakllanadigan boshqa xususiyatlarga asos bo'ladi. Ya'ni temperament – shaxs faoliyati va xulqining o'zgaruvchan hamda emotsiyonal-hissiy tomonlarini aks ettiruvchi individual xususiyatlar majmuidir. Dunyodagi insonlar temperamentiga ko'ra 4 xil turga bo'linadi.

Siz ulardan qay biriga mansubligingizni bilasizmi? Fe'l-atvoringizning eng nozik qirralarini-chi? U holda psixologiya sizga yordam beradi.

Berilgan to'rt fikrdan birini tanlab, jadvaldagi o'sha harfga (+), qolganlariga (-) qo'yiladi. Hamma (10 ta) fikrlardan o'zingizga taalluqlisini belgilaganingizdan so'ng qaysi qatorda ko'p (+) bo'lsa, o'sha sizning temperamentingiz hisoblanadi.

Savollar varaqasini o'qishdan oldin o'zingizga javoblar varaqasini chizib oling.

| t/r | 1 | 2 | 3 | 4 |
|-----------------|---|---|---|---|
| 1 | A | B | V | G |
| 2 | V | A | G | B |
| 3 | B | G | A | V |
| 4 | V | G | B | A |
| 5 | A | V | B | G |
| 6 | V | B | A | G |
| 7 | B | G | V | A |
| 8 | G | B | V | A |
| 9 | A | G | B | V |
| 10 | A | V | B | G |
| Jami (+) | | | | |

Savollar varaqasi:

- 1. A – kayfiyattingiz tez-tez o'zgarib turadi, xursandchilik tezda xafagarchilikka ham aylanishi mumkin, achchig'ingizni chiqarish oson.**
 B – doimo xushchaqchaqsiz va shu kayfiyattingiz odamlarga o'tib turadi.
 V – hamisha kayfiyattingiz bir xil, achchig'ingizni chiqarish qiyin.
 G – mudom kayfiyattingiz yomon, sizni kuldirish qiyin.

2. A – chaqqon va harakatchansiz.

- B – sekin va past ovozda gapirish yoqadi.
 V – tez va shoshilib fikringizni bildirishni xohlaysiz.
 G – sekin va baland ovozda kam harakat bilan gapirasiz.

3. A – agar ishingiz yurishmasa ham boshlagan yo'lingizdan qaytmaysiz va boshqa yo'lni izlaysiz.

- B – ishingiz yurishmasa, tashlaysiz va boshqa yo'lni izlaysiz.
 V – ishingiz yurishmasa, xafa bo'lasiz va tashlab yuborasiz.
 G – ishingiz yurishmasa, u yodingizdan chiqadi va davom ettirasiz.

4. A – tez charchaysiz.

- B – ko'p va oxirigacha yetkazib ishlaysiz.
V – yutuq bo'ladigan ishni yaxshi ko'rasiz.
G – har qanday ishni bajarasiz, ko'pincha faollik qilasiz.

5. A – tanbehni yoqtirmaysiz, bahslashasiz.

- B – tanbehni jim tinglaysiz, lekin yana xato qilasiz.
V – tanbehni diqqat bilan tinglab, tuzatasiz.
G – tanbehni eshitib xafa bo'lasiz, lekin bahslashmaysiz.

6. A – ishlashdan oldin reja tuzib, keyin ishni boshlaysiz.

- B – agar ishda qiyinchilik bo'lsa, tezda moslashasiz (shu ishga).
V – ishga tez kirishasiz, lekin keyin qiyin bo'lsa, tuzatasiz.
G – ishni boshlashdan oldin o'ylaysiz, yoqmasa, ishlamaysiz.

7. A – bir qarorga kelishdan oldin o'ylaysiz, hayajonlanasiz.

- B – bir qarorga kelishdan oldin o'ylamaysiz.
V – bir qarorga kelishingiz qiyin.
G – bir qarorga tez kelasiz.

8. A – muloqotda muloyim, taktikali, hozirjavobsiz.

- B – muloqotda boshlovchi, chaqqonlikni yaxshi ko'rasiz.
V – muloqotni unchalik xush ko'rmaysiz, bir o'zingiz bo'lsangiz yaxshi.
G – yolg'izlikni yomon ko'rasiz, muloqot uchun doimo kishi izlaysiz.


9. A – xafachilikdan qattiq ranjiysiz, lekin tezda unutasiz.

- B – xafachilikdan qattiq ranjiysiz, tez unuta olmaysiz, boshqalarga bildirishni yomon ko'rasiz.
V – xafachilikni tez unuta olasiz.
G – xafachilikni optimistik ravishda qabul qilasiz, tez unutasiz.

10. A – hazilni, hazil qilishni yaxshi ko'rasiz.

- B – hazilni yaxshi ko'rasiz, faqat eng yaqin kishingiz bilan.
V – bo'lar-bo'lmas hazil qilasiz, lekin odamlar buni tushunmaydi.
G – hazil qilishni ham, hazilni ham unchalik yoqtirmaysiz.


Xolerik



Xolerik – temperament tez paydo bo'luvchi va kuchli tuyg'ular, zo'r ta'sirlanish, tajanglik, tuganmas g'ayrat, ko'proq harakatchanlik, aniq imo-ishoralar va boy mimika bilan xarakterlanadi. **Kuchli barqaror, harakatchan tip.**

1. Qo'nimsiz va shoshqaloq.
2. O'zini bosishi qiyin.
3. Chidamsiz.
4. Muammolarda keskin va to'g'ri so'z.
5. Tashabbuskor va tezda bir qarorga keladi.
6. O'jar.
7. Tortishuvda topqir.
8. Ishga goh berilib ketadi, goh tashlab qo'yadi.
9. Tavakkalchi.
10. Kishilarga kek saqlamaydi, xafa bo'lmaydi.
11. So'zlaganda nutqi tez, ehtirosli.
12. Tabiatи beqaror, qizishishga moyil.
13. Tajavuzkor, janjalchi.
14. Kamchilik va nuqsonlarga beshafqat.
15. Yuz ko'rinishi ochilib-sochilib turgan.
16. Masalaga ta'sir qilish va hal qilishga qobiliyatli.
17. Doim yangilikka intiladi.
18. Harakatlari keskin va shiddatli.
19. Maqsadga erishishga chidamlı.
20. Kayfiyati tez o'zgaruvchan.

Sangvinik




Sangvinik – tez paydo bo'luvchi va oson almashinadigan tuyg'ular bilan farq qiladi. Sangvinik kishi uchun xatti-harakatning barqarorligi xosdir. **Kuchli barqaror, harakatchan tip.**

1. Xushchaqchaq va quvnoq.
2. Ishchan, g'ayratli.
3. Ko'pchilik hollarda boshlagan ishini oxiriga yetkazmaydi.
4. O'ziga ortiqcha baho berishga moyil.
5. Yangilikni tez egallahsga layoqatli.
6. Qiziqlishi va mayli turg'un emas.
7. Muvaffaqiyatsizlik va ko'ngilsizlikni yengil o'tkazadi.
8. Har xil sharoitga oson moslashadi.
9. Har qanday ishga zo'r qiziqlish bilan kirishadi.
10. O'zini qiziqtirmagan ishdan tezda soviydi.
11. Bir ishdan ikkinchi ishga oson va tez kirisha oladi.
12. Bir xil, mashaqqatli ishdan qiynaladi.
13. Jamoatchi, dilkash va ko'ngilchan.
14. Chidamlı va ishchan.



15. So'zlagan nutqi qattiq, tez, aniq, imo-ishoralari jonli hamda keskin.
16. Murakkab sharoitda ham o'zini tuta biladi.
17. Hamma vaqt kayfiyati yaxshi, tetik.
18. Tez uhlaydi va tez uyg'onadi.
19. Ko'pchilik hollarda masalani hal qilishda xayolparast va shoshqaloq.
20. Asosiy masaladan chetga chiqishga moyil.

Flegmatik



Flegmatik – temperament tuyg'ularning sust paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi, flegmatik kishini tinch holatdan olib chiqish oson emas, u harakat va gapirishda ham shoshilmaydi, mimikasi kam ifodali, harakatlari sust. **Kuchli barqaror, kam harakat tip.**

1. Sovuqqon va xotirjam.
2. Ishda batartib va sharoitni hisobga oladi.
3. Ehtiyotkor va andishali.
4. Kutishga, chidamga layoqatli.
5. Kamgap, behuda so'zlashni yoqtirmaydi.
6. Gapirganda nutqi bir xil, tekis imo-ishorasiz va hayajonsiz.
7. Chidamli va o'zini tuta biladi.
8. Boshlagan ishni oxiriga yetkazadi.
9. Ishga behuda kuch sarf qilmaydi.
10. Ish tartibi va rejimiga qat'iy amal qiladi.
11. O'zini tuta biladi.
12. Maqtovlarga befarq.
13. Kek saqlamaydi, kechirimli.
14. O'z qiziqish va muammolarida hamma vaqt bir xil.
15. Bir ishdan ikkinchi ishga qiyin moslashadi.
16. Muomalasi hammaga bir xil.
17. Tartib va intizomni yaxshi ko'radi.
18. Yangi sharoitga qiyin moslashadi.
19. Chidamli, sabr-toqatli.
20. Ko'pchilik hollarda, atrofidagi voqeа-hodisalarни sezmay qoladi.

Melanxolik



Melanxolik – temperament tuyg'ularning nisbatan kam xilma-xil bo'lgani holda ularning sekin paydo bo'lishi bilan ajralib turadi, tashqi tomondan tuyg'ulari deyarli ko'zga tashlanmaydi, melanxolik kishini ko'p narsa bezovta qilmaydi, lekin his-tuyg'ular paydo bo'lganda u odatda, chuqur, davomli va ancha kuchli bo'ladi. Melanxolik kishi ko'pincha g'amgin kayfiyatda yuradi. **Bo'shang va xayolparast tip.**



1. Tortinchoq va uyatchan.
2. Yangi sharoitda o'zini yo'qotib qo'yadi.
3. Notanish kishi bilan tez til topisha olmaydi.
4. O'z kuchi va imkoniyatlarga ishonmaydi.
5. Yolg'izlikni yaxshi ko'radi.
6. Muvaffaqiyatsizliklarda o'zini yo'qotib qo'yadi.
7. O'zi bilan o'zi bo'lismeni yaxshi ko'radi.
8. Tez charchaydi.
9. So'zlaganda nutqi kuchsiz, ba'zan shivirlab qoladi.
10. Suhbatdoshining xarakteriga ilojsiz ko'nikadi.
11. Ta'sirchan, hatto yig'lashi ham mumkin.
13. O'ziga va atrofdagilarga talabchan.
14. Gumonsirashga, maydakashlikka moyil.
15. Gapga ta'sirchan va tez o'ziga oladi.
16. Haddan tashqari tez xafa bo'ladi.
17. Hech kim bilan fikr olishmaydi. Ko'pchilikni yoqtirmaydi.
18. Kamharakat va beso'naqay.
19. Indamas, o'ta itoatkor.
20. Atrofdagilardan o'zi uchun kuyinish va yordam kutadi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI TA'LIM MUASSASALARI PSIXOLOGINING LAVOZIM YO'RIQNOMASI



Ushbu yo'rqnoma O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda ta'lism muassasalari Nizomi asosida tayyorlandi.

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ta'lism muassasasi psixologini faoliyati ta'lism xizmatlari sohasiga mansub bo'lib, barkamol shaxsni tarbiyalash hamda o'quvchining har tomonlama garmonik, to'laqonli psixologik taraqqiyotini ta'minlovchi optimal shart-sharoitlarni yaratishni maqsad qilib qo'yadi.

Shuningdek, ta'lism muassasasi psixologining burchi ta'lism-tarbiya ish rejasini tuzishda, tarbiyaviy tadbirlar ishlab chiqishda, o'quv dasturi, qo'llanmalarini yaratishda faol ishtirok qilish va bosh maqsad bo'lgan o'quvchining intellektual qobiliyati, umuminsoniy fazilati, bilim, ko'nikma va malakalari, mutaxassislik xislatlarini shakllantirishdek muqaddas ishga o'zining munosib ulushini qo'shishdan iboratdir.

Ta'lism muassasasi psixologini o'zining o'quvchi xulq-atvori va psixik faoliyati, psixik taraqqiyotning yosh qonuniyatlari, kasbiy bilimlari, o'quvchilar va kattalar, tengdoshlari bilan o'zaro munosabat xususiyatlari, o'quv-tarbiya jarayonini tashkillashuviga tayanib, shaxsga individual yondashuv imkoniyatlarini beradi, uning qobiliyatlarini aniqlaydi, me'yordan chetlashishlarning ehtimolli sabablarini, psixologik-pedagogik korreksiya qilish yo'llarini aniqlaydi. Bu bilan ta'lism muassasasi psixologi ta'lism tizimida o'quv-tarbiya ishining mahsulorligini oshirishga, ijodiy faol shaxsni shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

Ta'lism muassasasi psixologini faoliyati zamon talablariga mos ravishda takomillashtirilib boriladi.

1.2. Ta'lism muassasasi psixologi ta'lism muassasida umumiyoq o'quv va tarbiyaviy jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ta'lism muassasasi psixologi faoliyatining tadqiqot va ta'sir o'tkazish obyekti ta'lism muassasasi o'quvchilari, o'qituvchilari, ota-onalari bo'lib hisoblanadi. Ularni alohida yoki guruh shaklda tadqiq qilish mumkin.

Ta'lism muassasasi psixologlari barcha muammolarni hal qilishda har qaysi shaxsning (pedagog, o'quvchi, ota-on) manfaati va uning har tomonlama uyg'un va mukammal rivojlanishidan kelib chiqqan holda yondashadi.

1.3. Ta'lism muassasasi psixologlari o'z faoliyatlarini ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari, tibbiyot xodimlari, muayyan komissiyalar, ota-onalar hamda ta'lism muassasasi jamoasi bilan uzviy aloqada amalga oshiradilar.

1.4. Ta'lism muassasasi psixologi lavozimi bo'yicha umumiyoq rahbarlikni ta'lism muassasining ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari olib boradi.

II. TA'LIM MUASSASASI PSIXOLOGI FAOLIYATINING MAQSADLARI

2.1. Ta'lrim muassasasi psixologgi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hamda jadal rivojlanishini hisobga oluvchi, ular psixikasining barcha jabhalarini qamrab oluvchi dinamik taraqqiyotga kafolat beruvchi dastur ishlab chiqarishga butun faoliyatini yo'naltirish, ijtimoiy o'sish talabiga javob beruvchi, umuminsoniy, etnopsixologik qonuniyatlar kamolotiga yetaklovchi modelni tarkib toptirish;

2.2. O'quvchi shaxsining har tomonlama (jismoniy, ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, intellektual, ruhiy) uyg'un taraqqiyoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

2.3. O'quvchini o'qishga adaptatsiya qilish jarayonida o'zini anglash va kasbiy shakllanish hamda shaxsiy psixologik muammolarida kompleks yordam ko'rsatish;

2.4. Ta'lrim muassasasida pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlovchi psixologik muammolar yechimida yordam berishni bosh maqsad deb tanlaydi.

III. TA'LIM MUASSASASI PSIXOLOGI FAOLIYATI YO'NALISHLARI HAMDA VAZIFALARI

3.1. Ta'lrim muassasasi psixologgi faoliyati yo'nalishlari:

- psixoprofilaktik ishlar
- psixologik targ'ibot va ma'rifat
- psixodiagnostika
- psixik rivojlantirish va psixokorreksiya
- psixologik konsultatsiya

1. Psixoprofilaktika – ta'lrim muassasasi psixologgi faoliyatining maxsus turi bo'lib, o'quvchi va o'qituvchilar uchun sog'lom psixologik muhit yaratish va ular shaxsining rivojlanishi uchun optimal shart-sharoitlarni ta'minlash hisoblanadi.

Psixologik profilaktika ishning asosiy vazifalari quyidagilar:

- shaxs sifatida shakllanish, aqlan barkamollikni ta'minlashning oqilona shart-sharoitlarini yaratish;
- shaxs kamoloti va intellektual taraqqiyoti bo'sag'asida vujudga kelishi mumkin bo'lgan psixologik nuqsonlar va buzilishlarni o'z vaqtida oldini olish;
- o'quvchini muayyan sharoitga moslashishi (*ko'ngil*)ga oid ishlarini olib borish, buning uchun ijtimoiy moslashish bilan bog'liq bo'lgan maxsus guruhalr tuzish, nevrotik holatlarni bartaraf qilish, tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlash va ularning ota-onalari, sinf rahbari bilan alohida ishlash;
- ta'lrim va tarbiya, yashash sharoiti bilan bog'liq nevrotik holatlar, psixologik zo'riqishning oldini olish;
- o'quvchi shaxsining qobiliyati, psixoloik fazilatlari, xususiyatlarining to'laqonli namoyon bo'lishi maqsadida, aqliy (*intellectual*) taraqqiyot darajasini aniqlash uchun psixologik konsiliumlar tashkil qilish;
- ta'lrim muassasasi jamoa a'zolaridagi psixologik zo'riqish va toliqishni yo'qotish, kamaytirish, ularning oldini olish chora-tadbirlarini tarkib toptirishga ko'maklashish;

- o'qituvchilar, xodimlar, ota-onalar o'rtasida yuzaga keladigan nizolar, shuningdek, oilaviy nizolarning psixologik ildizini o'rganish, ularni keltirib chiqaruvchi motivlarni tahlil qilish, favquloddagi vaziyatlarni yengillashtirish va tamoman bartaraf qilish yo'llari yuzasidan maslahatlar berish;

- o'zlashtirishi sust bo'lgan o'quvchilar ruhiy dunyosidagi nuqsonlarni aniqlash va ularga yordam berish yo'l-yo'rqliarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilish;

- o'z-o'zini boshqarish imkoniyatini ta'lim muassasasi o'quvchilari o'rtasida aniqlash (bioritmika, emotsiya, motivatsiya, iroda, qiziqish, diqqat kabilarni shaxs tomonidan idora qilish nazarda tutiladi);

- o'quvchilarda, ayniqsa, yotoqxonada yashovchi o'quvchilarda ijtimoiy moslashuv ko'nikmasini shakllantirish va ularning ijtimoiy muammolarini bartaraf etishda psixologik-pedagogik ta'sir amaliyotlarini olib borish;

- huquqbazarlik va jinoyatga moyilligi bo'lgan, xulqi og'ishgan o'quvchilarni aniqlash, ularning ruhiy holatini barqarorlashtirish orqali ijtimoiy faol jarayonga yo'naltirish;

- o'quvchilar o'rtasida bo'sh vaqt ni taqsimlash va undan omilkorlik bilan foydalanish muammosini ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan tekshirish va bo'sh vaqt ni maqsadga muvofiq tashkil qilish yo'llari, ulardan etnopsixologik bilimlar, ma'nnaviy qadriyatlarni egallashda foydalanish imkoniyatini psixologik tahlil qilish;

- o'quvchilarda davlat mablag'ini tejash tuyg'usini aniqlash, tejamkorlik, mol-mulkni asrash hissini o'rganish, noxush kechinmalarni jamoa orasida yoppasiga tekshirish, ularda mehnatni qadrlash burchini shakllantirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish;

2. Psixologik targ'ibot va ma'rifat – o'quvchi va pedagoglar jamoalarida eng qulay psixologik muhitni yuzaga keltirish uchun maxsus psixologik tadbirlar olib borish, pedagogik jamoada muomala madaniyatini takomillashtirish, o'quvchilar bilan o'qituvchilarning muomala jarayonini yaxshilashga yordam berish, shaxsga oid, ixtisoslikka doir muammolar yuzasidan pedagogik jamoalarda keng ko'lamda maslahatlar berish. Pedagogik jamoa a'zolaridagi psixologik zo'riqish va toliqishni yo'qotish, kamaytirish, ularning oldini olish uchun chora-tadbirlarni tarkib toptirishga ko'maklashish.

3. Psixodiagnostika – psixodiagnostik tadqiqotlar o'quvchilarning o'qishi davomida psixologik-pedagogik jihatdan chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning individual-psixologik xususiyatlarini, ta'lim-tarbiyadagi nuqsonlarning sabablarini aniqlashga mo'ljallangandir. Diagnostik ishlar guruh yoki individual tarzda o'tkaziladi.

Mazkur ishlar ta'lim muassasalarida o'qitish davomida psixologik-pedagogik jihatdan chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning individual xususiyatlarini, ta'lim va tarbiyadagi nuqsonlari sababini aniqlashga mo'ljallangandir. Bu asnoda amaliy psixolog quyidagi vazifalarni bajaradi:

- yosh davr taraqqiyoti mezonlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida, psixolog ta'lim muassasalari o'quvchilarini psixologik tekshiruvdan o'tkazadi, ularning darajalarini belgilaydi. O'quvchilarning kasbiy yaroqliligini diagnostika qiladi, ularning shaxs xislatlari, irodaviy sifatlari, his-tuyg'ulari, o'zini-o'zi boshqarish imkoniyati, intellektual darajasini tekshiradi;

- psixolog o'qituvchilar va o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, ularning qiziqishi, mayli, iqtidori kabilarni o'rganadi, mutaxassis va yetuk shaxs sifatida shakllanishiga muayyan yordam ko'rsatadi;

4. Psixik rivojlantirish va psixokorreksiya ishlar yo'nalishi psixologdan o'quvchi, o'qituvchilar shaxsi va intellektini rivojlantirish jarayoniga faol ta'sir o'tkazishni taqozo qiladi.

Ushbu yo'nalishda psixolog quyidagi aniq ishlarni amalga oshiradi:

- rivojlantiruvchi va psixokorreksiyaviy ishlar psixolog tomonidan har xil shakllarda, vaziyatlarda va holatlarda tashkil qilinadi:

a) amaliy psixologning maxsus ishi, mashg'uloti ayrim o'quvchilar bilan alohida o'tkazilishi mumkin bo'lgan mashg'ulotlar rejalashtiriladi.

b) o'quvchilarning har-bir faoliyati maxsus ravishda amalga oshirilib, o'quvchilar guruuhlariga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga yo'naltirilgan bo'ladi;

- rivojlantiruvchi va psixokorreksiyaviy muammolarni qamrab oluvchi korreksiyaviy faoliyatning psixologik qismi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur ishning pedagogik jihatni esa psixologning pedagoglar, ota-onalar bilan hamkorligida o'tkaziladi.

- ta'lif muassasasi psixologi o'quvchilarning psixik taraqqiyotidagi, xulqidagi nuqsonlar hamda kamchiliklarni asta-sekin tuzatish, korreksiya qilish dasturini ishlab chiqadi va amaliyotga tadbiq etadi. Buning uchun ular bilan maxsus mashg'ulotlar, buzilishni kamaytirish mashqlarini o'tkazadi, ijodiy (kreativ) qobiliyatlarni o'stirish maqsadida treninglar olib boradi.

Korreksiyaviy faoliyatning psixologik qismi psixologlar tomonidan amalga oshiriladi. Rivojlantiruvchi va korreksiya ishlari psixolog tomonidan har xil shakllarda, vaziyatlarda hal qilinadi:

- ta'lif muassasasi psixologining maxsus individual ishi;

- o'quvchilar guruhiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar;

- ota-onalar, pedagogik jamoa ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar tarzida mashg'ulotlar olib borish.

5. Psixologik konsultatsiya (maslahat) – o'quvchilar ta'lif va tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi barcha shaxslarga, jumladan ma'muriyat, o'qituvchilar, ota-onalar, ijtimoiy va jamoatchilik tashkilotlari xodimlariga aniq maslahatlar berish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu yo'nalishda psixolog quyidagi aniq ishlarni amalga oshiradi:

- ta'lif, taraqqiyot, tarbiya, kasbiy shakllanish, o'zaro munosabat, muomala va muloqot sirlari, tengdoshlar munosabati va dunyoqarash, qobiliyat, iqtidor muammolari yuzasidan yakka tartibda, guruh bilan, jamoaviy tarzda maslahatlar uyushtirish;

- ota-onalarga o'quvchilarning psixik rivojlanish xususiyatlari, shaxs sifatida shakllanishi, o'zaro munosabat maqomlari, bunda farzandlarining yoshi, jinsi, individual-tipologik xususiyatlari muammosi bo'yicha maslahatlar berish;

- yotoqxonalarda o'quvchilarning talabi, ehtiyoji, qiziqishi, ijtimoiy qarashlari, pozitsiyasi mosligi va turmushga munosabati to'g'risida ma'lumotlar to'plash va ularni amalga oshirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

3.2. Ta'lif muassasasi psixologgi faoliyatini amalga oshirish metodlari turlicha bo'lishi mumkin:

- psixologik madaniyatni o'stirish va targ'ib qilish maqsadida ta'lif muassasasi o'qituvchilari, o'quvchilar bilan ma'ruzalar turkumi va trening mashg'ulotlari o'tkazish;
- ommaviy axborot vositalarida chiqishlar;
- psixodiagnostik tadqiqotlar o'tkazish, metodikalar ishlab chiqish (test, savol varaqasi, tajriba, kuzatish, suhbat va boshqalar);
- psixologik maslahat berish;
- psixologik konsiliumlar o'tkazish.

Bu yo'nalishdagi ishlar rejasi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinosidan tasdiqlanadi va nazorat qilinadi.

IV. TA'LIM MUASSASASI PSIXOLOGI FAOLIYATINING MAZMUNI

- 4.1. Ta'lif muassasasidagi o'quvchilar guruhlarini ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganib chiqish;
- 4.2. Ta'lif muassasasidagi axloqiy-psixologik muhitni, uning o'quvchi shaxsiga ta'sirini o'rganish;
- 4.3. O'quvchilarning shaxsiy muammolarini aniqlash maqsadida, ijtimoiy-psixologik diagnostika o'tkazish;
- 4.4. Ijtimoiy himoyaga muhtoj o'quvchilarni aniqlashda ishtirok etish;
- 4.5. Mushkul vaziyatlarga tushib qolgan o'quvchilarga individual maslahatlar berish;
- 4.6. Ota-onalar, pedagoglar, ma'muriyat va sinf rahbarlariga psixologik maslahatlar berish;
- 4.7. O'quvchilardagi xulqiy og'ishishlarni erta aniqlash va ularning oldini olish;
- 4.8. Turli holatlar bo'yicha hisobda turadigan o'quvchilar bilan psixoprofilaktik va korreksiya ishlarini olib borish;

V. TA'LIM MUASSASASI PSIXOLOGI FAOLIYATIGA OID HUJJATLAR

- 5.1. Ochiq turdag'i hujjatlar:
 - Direktor o'rinosidan tasdiqlangan yillik ish reja;
 - Psixologning konsultatsiyalarni ro'yxatga olish jurnali;
 - faoliyati bo'yicha umumiy hisobotlar.
- 5.2. Konfedensial xarakterdag'i hujjatlar (XDFU):
 - O'quvchilar bilan individual ishlarni ro'yxatga olish jurnali;
 - Ta'lif muassasalaridagi o'quvchilar guruhalining ijtimoiy-psixologik pasportlari;
 - Notinch oilalar, xavf-xatar darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilarning ma'lumotlar banki;
 - Psixologik diagnozlar
 - Ota-onalar, pedagog xodimlar bilan ish yuritishga doir materiallar.

VI. TA'LIM MUASSASASI PSIXOLOGINING INDIVIDUAL MAS'ULIYATI

- 6.1. Funksional vazifalarini bajarishga;
- 6.2. Tasdiqlangan ish rejasining to'liq bajarilishini ta'minlashga;
- 6.3. Tasdiqlangan shakldagi hisobotlarni o'z vaqtida taqdim etishga;
- 6.4. Psixologik diagnozlarning aniqligiga;
- 6.5. Diagnostik va korreksiyaviy ishlar metodlar adekvatligiga;
- 6.6. O'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar va ularning natijalariga;
- 6.7. Berilayotgan tavsiyalar asoslanganligiga;
- 6.8. Tekshiruv va boshqa hujjatlar to'ldirilishiga va saqlanishiga.
- 6.9. Psixologik diagnostika natijalari va materiallari yuridik hujjat hisoblanmaydi va tavsiya xarakteriga ega.
- 6.10 Ta'lrim muassasasi o'quvchilari va jamoasi hayotida yuz beruvchi kasbiy, ijtimoiy, oilaviy psixologik krizisli holatlari, jarohat, travma va boshqa patologik holatlar uchun psixolog shaxsan yakka holda mas'uliyat va javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

VII. TA'LIM MUASSASASI PSIXOLOGINING MAJBURIYATLARI

- 7.1. Ta'lrim muassasasining Nizomi, Psixologik xizmat dasturi, psixolog kodeksiga va ushbu Yo'riqnomaga ko'ra ish yuritish;
- 7.2. Ta'lrim muassasasi psixologi faoliyati bo'yicha metodik seminarlarda ishtirok etish;
- 7.3. Ta'lrim muassasasi rahbariyati oldida olib borilayotgan ishlar yuzasidan hisobotlar berish;
- 7.4. Ma'muriyat, ota-onalar bilan uzviy aloqada ish yuritish;
- 7.5. Konsultatsiya jarayonida olingan shaxsga doir axborotlar maxfiyligini ta'minlash;
- 7.6. Ta'lrim muassasasi Kengashi oldida hisobotlar berib borish.

VIII. TA'LIM MUASSASASI PSIXOLOGINING HUQUQLARI

- 8.1. Ta'lrim muassasasi Kengashi yig'ilishlarida ishtirok etish;
- 8.2. O'quvchilar faoliyatini kuzatish maqsadida, darslar va sinfdan tashqari ishlarda ishtirok etish;
- 8.3. Pedagogik hujjatlar bilan tanishish;
- 8.4. Ta'lrim muassasasida guruh bilan va yakka tartibda psixologik tadqiqot ishlarini olib borish;
- 8.5. Ma'lumoti va kasbiy malakasiga muvofiq, o'quv va fakultativ mashg'ulotlar yuklamalarini olish;

- 8.6. Zaruriyat tug'ilganda, tibbiy va defektologik muassasalarga murojaat etish;
- 8.7. O'quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish bilan bog'liq masalalarni ta'lif muassasasi rahbariyatiga yetkazish;
- 8.8. Kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, o'z kasbiy malakasini oshirish;
- 8.9. Mehnatni tashkil etishning qulay shart-sharoitlariga ega bo'lish;
- 8.10. Ta'lif muassasasi rahbariyatidan maslahatlar olish;
- 8.11. Ta'lif-tarbiya jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar xulqi, o'quv faoliyati xususiyatlarini kuzatish maqsadida dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda qatnashish;
- 8.12. Sinf rahbarlari, tarbiyachilar, ota-onalar va o'quvchilarning yig'ilishlarida ishtirok etish.
- 8.13. Psixolog psixologik ixtisos, asosiy ma'lumotlardan tashqari, o'quv va fakultativ tarzda 0,5 pedagogik stavkada dars o'tish imkoniyatiga ega.
- 8.14. Amaliyotchi psixologning mehnat ta'tili muddati barcha ta'lif muassasasi o'qituvchilari bilan barobardir.
- 8.15. Ta'lif muassasasi psixologi oylik maoshi "Ta'lif muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining mehnatiga haq to'lash razryadlari" bo'yicha belgilanadi.

IX. TA'LIM MUASSASASI PSIXOLOGIGA QO'YILADIGAN MALAKA TALABLARI

- 9.1. Oliy toifadagi psixolog: ixtisosligi bo'yicha magistr, psixologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis, psixolog sifatida kamida 1 yil ish staji bo'lishi lozim;
- 9.2. 1-toifadagi psixolog: ixtisosligi bo'yicha magistr, psixologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis, 2-toifadagi psixolog sifatida kamida 1 yil (*ixtisosligi bo'yicha magistr ish stajiga talab qo'yilmaydi*) ish staji bo'lishi lozim;
- 9.3. 2-toifadagi psixolog: psixologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis, psixolog sifatida kamida 2 yil ish staji bo'lishi lozim;
- 9.4. **Ta'lif muassasasi psixologi bilishi zarur:**
 - O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni, davlatning ichki va tashqi siyosatini, ta'lif va yoshlar to'g'risida Hukumat tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarni, mustaqil O'zbekiston ramzlarining mazmun va mohiyatini;
 - o'spirin, yoshlar psixologiyasi va fiziologiyasini, pedagogikani, o'spirin va yoshlar rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini, ularning xususiyatlarini, qiziqishlarini;
 - Respublika va xorijiy davlatlaridagi psixologiya fanining yangiliklarini;
 - hozirgi zamon ilmiy-amaliy asoslangan tashxisni, psixologik gigiyena asoslarini, kasb-hunarga yo'naltirish asoslarini, mehnat psixologiyasini, psixologik maslahat va psixoprofilaktika asoslarini, yosh anatomiysi, psixologiyasi va o'quvchilar fiziologiyasini, rivojlantiruvchi psixokorreksion, psixoprofilaktik ishlar metodlarini bilishi talab etiladi.

AGENTLIK TIZIMIDAGI TA'LIM MUASSASALARI PSIXOLOGLARI UCHUN NAMUNAVIY REJA

| Nº | Bajariladigan ish mazmuni | Ijro muddati | Mas'ullar | Kutiladigan natija |
|---|---|-----------------|---|---|
| I. TASHKILLY ISHLAR MAZMUNI | | | | |
| 1. | Yangi qabul qilingan o'quvchilarga maktab psixologining ijtimoiy-psixologik faoliyati va psixologik xizmat turlari haqida ma'lumot berish. | Sentabr | Psixolog, sinf rahbarlari, tarbiyachi-pedagoglar. | O'quvchilar maktab psixologining faoliyt turi, targ'ibot varaqalari bilan tanishadi. |
| 2. | O'quvchilarga ruhiy motivatsiya berish orqali ularda yuzaga kelayotgan tashqi va ichki zo'riqishlarning oldini olish, psixolog tomonidan motivatsiya bergen holda, terapiya usullaridan (qo'shiq, raqs, jismoniylar tarbiya, mutolaq, sayr va hokazo)lardan kun tartibi tuzgan holda topshirilqr berib borish. | Har oyda | Psixolog, sinf rahbarlari va tarbiyachi-pedagoglar bilan hamkorlikda. | O'quvchilarda yuzaga kelayotgan zo'riqishlarning oldi olinadi. |
| II. PSIXODIAGNOSTIK ISHLAR MAZMUNI | | | | |
| 3. | O'quvchilarning ijtimoiy-psixologik pasportini tuzish. | Oktabr - noyabr | Psixolog | Ta'lim muassasasi o'quvchilarining ijtimoiy psixologik pasporti yaratiladi. |
| 4. | O'quvchilarning psixik taraqqiyotidagi, Xulqidagi nuqsonlar hamda kamchiliklarni asta-sekin tuzatish, korreksiya qilish, buning uchun ular bilan maxsus mashg'ulotlar o'tkazish, nevrotik holatlarni kamaytirish mashqlarini o'tkazish, ijodiy (kreativ) qobiliyatlarini rivojlantirish uchun treninglar olib borish. | Yil davomida | Psixolog, sinf rahbarlari va tarbiyachi-pedagoglar bilan hamkorlikda. | Har bir shaxsga nisbatan individual-psixologik xususiyatidan kelib chiqib aniq ko'rsatmalar ishlab chiqiladi, tavsiya etiladi. |
| 5. | - o'quvchilarning o'quv motivlari, shaxsiy yo'nalganligi, qadriyatlari tizimini o'rGANISH. - guruh o'quvchilariga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar; - pedagogik jamoa ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar tarzida mashg'ulotlar olib borish. | Yil davomida | Psixolog, sinf rahbarlari va tarbiyachi-pedagoglar bilan hamkorlikda. | O'qituvchilar va o'quvchilarning o'quv motivlari, shaxsiy yo'nalganligi, qadriyatlari tizimi xususiyatlari aniqlanadi va ta'lim jarayoniga tuzatishlar kiritishga oid takliflar ishlab chiqiladi. |

| | | | | |
|------------------------------|---|---------------------|--|---|
| 6. | Ta'lim, taraqqiyot, tarbiya, o'zaro munosabat, muomala va muloqot sirlari, tengdoshlar munosabati va dunyoqarash, qobiliyat, iqtidor muammolari yuzasidan individual, guruh va jamoaviy tarzda maslahatlar uyushtirish. | Yil davomida | Psixolog | Ta'lim, taraqqiyot, tarbiya, kasbiy shakllanish, tengdoshlar munosabati va dunyoqarash, qibiliyat, iqtidor muammolari yuzasidan individual, guruh va jamoaviy maslahat uyushtiriladi. |
| IV. PSIXOPROFILAKTIKA | | | | |
| 7. | Huquqbuzarlik va jinoyatning oldini olishga doir psixoprofilaktik ishlarni olib borish. Huquqbuzarlik va jinoyatchilikka moyilligi bor o'quvchilarni aniqlash bo'yicha psixolog so'rovnomalari o'tkazish. | O'quv yili davomida | Psixolog, sinf rahbarlari va tarbiyachi-pedagoglar bilan hamkorlikda. | Huquqbuzarlik va jinoy ishlarning oldi olinadi. |
| 8. | O'qituvchilar va ota-onalar uchun "Suitsidning psixofiziologik mexanizmlari" mavzusida kichik ma'ruza tashkil etib, suitsidning oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlarnini tashkillashtirish. Suitsidga moyilligi bor o'quvchilarni aniqlash bo'yicha psixologik so'rovnomalari o'tkazish. | Fevral, Mart | Psixolog, sinf rahbarlari va tarbiyachi-pedagoglar bilan hamkorlikda. | O'quvchilar o'rtasida bo'ladigan har xil noxush holatlarni bartaraf etib, ruhiyatini chiniqtiradi. |
| 9. | Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan, nogironligi bor o'quvchilarga ruhiy madad berish va ularni psixolik qo'llab-quvvatlash. | O'quv yili davomida | Psixolog, sinf rahbarlari va tarbiyachi-pedagoglar bilan hamkorligida. | O'ziga bo'lgan bahosini oshirish, har xil psixologik to'siqlarni yengishga yordam berish. |
| 10. | Ta'lim muassasasi o'quvchilar turar joyida istiqomat qilayotgan o'quvchilar bilan psixologik-psixoprofilaktik ishlarni amalga oshirish. | O'quv yili davomida | Psixolog tarbiyachi-pedagoglar bilan hamkorlikda. | Yotoqxonada istiqomat qilayotgan o'quvchilar muammolarini bartaraf etishga amaliy ko'maklashiladi. |

| V. PSIXOLOGIK KONSULTATSİYA | | | | |
|-----------------------------|--|------------------------|--------------------------|---|
| | | | | |
| 11. | O'qituvchilar, rahbar xodimlar, o'quvchi-yoshlar murojaati bilan individual tarzda ishlash. | O'quv yili davomida | Psixolog | Guruh tarzida yechimini topmagan muammolarni yakka taribda psixokorreksiya qilish imkoniyati paydo bo'ladi. |
| 12. | Mazkur reja ijrosi bo'yicha bajarilgan ishlarni internet tarmoqlarida keng yoritilib borilishini ta'minlash. | Talabga ko'ra har oyda | Psixolog, matbuot kotibi | E'lonlar, targ'ibot ishlari, hisobot |

Izoh:

1. Ushbu reja asosida ta'llim muassasasi xususiyatidan kelib chiqqan holda Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'trimbosari hamda psixolog tomonidan o'quv yili davomida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar rejasi ishlab chiqiladi.
2. Tadbirlar muddatlari nisbiy bo'lib, jarayondagi vaziyatga qarab o'zgartirish kiritiladi.
3. Ushbu namunaviy rejaga kirmay qolgan masalalar psixolog tomonidan kiritilishi va to'dirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:



1. Абрамова Г.С. Практическая психология. Учебник для студентов ВУЗов. – Изд., 6-е., перераб и доп. - М.: Академический проект, 2001, 480 с.
2. Абрамова Г.С. Возрастная психология. Учебник для студентов ВУЗов. – Изд., 6-е., перераб и доп. - М.: Академический проект, 2001, 704 с.
3. Бурлачук Л.Ф., Морозов С.М. Словарь-справочник по психодиагностике. – СПб: Питер Ком, 1999, 528 с.
4. Газиев Э.Г. Психологические основы развития самоуправления учебной деятельностью у школьников и студентов. Автореф.дисс.докт.псих.наун. М.: 1992, 38 с.
5. Davletshin M.G. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma - Toshkent.: O'qituvchi, 1974 (hammualliflik), 235 bet.
6. Элисеев О.П. Практикум по психологии личности. 2-е изд., испр. и перераб. - СПб.: Ритер, 2002, 512 с.
7. Краг Г., Бокум Д. Психология развития. – 9-е изд. – СПб.: Питер, 2006, 940 с.
8. Межличностное восприятие в группе /Под ред. Г.М.Андреевой, А.Н.Донсова. М.: Изд-во Моск. Ун-та, 198, 295 с.
9. Мелников В.М. Ямполский Л.Т. Введение в экспериментальную психологию личности: Учеб. пособие для слушателей ИПК преподавателей пед. дисциплин ун-тов и пед. ин-тов. - М.: Просвещение, 1985, 319 с.
10. Нелсон-Джоунс Р. Теория и практика консультирования. - СПб.: Питер, 2001, 464 с.
11. Небылисын В.Д. Избранные психологические труды. - М.: Педагогика, 1990, 408 с.
12. Немов.Р.С. Психология. - М., 2003.
13. Нуркелдиева Д.А., Чичирена Я. Илк мактабгача ёшдаги болаларни психологик педагогик, логопедик текшириш. - Т.: Янги аср авлоди, 2007 й.
14. Практикум по общей, экспериментальной и прикладной психологии /Под ред. А.А.Крылова, С.А.Манишева. С-Петербург.: Питер, 2000, 560 с.
15. Практикум по психодиагностике. М.; 1989. 350 с.
16. Практическая психология в тестах, или как научится понимать себя и других. М.: АСТ-ПРЕСС, 2000. 376 с.
17. Райгородский Д.Я. (составител) Практическая психодиагностика. Методики и тесты. Учебное пособие. Самара.: Издательский Дом "Бахрах", 1998, 672 с.

18. Романова Я.С. Психодиагностика: Учебное пособие. СПб.: Питер, 2005, 400 с.
19. Рогов Я.И. Настолная книга практического психолога: Учеб.пособие: В 2-кн. М.: Изд-во Владос-ПРЕСС, 2002.
20. Сапогова Я.Я. Психология развития человека: Учебное пособие. -М.: Аспект Пресс, 2001, 460 с.
21. Справочник практического психолога: Психотерапия /сост. С.Л.Соловёва. М.: АСТ.СПб.: Сова, 2005, 575 с.
22. Чалдини Р, Кенрик Д., Нейберг С. Социальная психология. Пойми себя, чтобы понять других! (серия “Главный учебник”). СПб.: Прайм- ЯВРОЗНАК, 2002, 336 с
23. G'oziev E.G'. Umumiyl psixologiya. T.: O'qituvchi, 2010.
24. Qodirov. B.R. Iqtidorli bolalarning birlamchi tanlovi metodikalari. Toshkent., 2014.
25. Mustafoeva. Sh. O'smir psixologiyasi. Biz bilmagan jihatlar. Toshkent, 2015.
26. Karimova E.G. O'zbek tolerantligining o'ziga xos xususiyatlari. O'quv qo'llanma. – Т.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006 yil, 64 bet.
27. Anne Anastasi, Susana Urbina. Psychology Testing -Prentice-Hall International, Inc.2000.
28. Henry Kellerman, PH.D. Anthony Burry, PH.D. Handbook of Psychodiagnostic Testing. - Springer Science_Business Media, LLC.2007.
29. Elizabeth A. Styles. The Psychology of Attention. This edition published in The Taylor & Francis ye-Library, 2005.

ELEKTRON MANBALAR

www.tdpu.uz
www.pedagog.uz
www.yedu.uz
www.gov.uz
www.ziyonet.uz
www.idum.uz

MUNDARIJA



| | |
|--|----|
| Kirish..... | 4 |
| Ta'lif muassasasi psixologining psixodiagnostika ishlari..... | 6 |
| Psixologik maslahat, psixokorreksiya va rivojlantirish ishlari..... | 10 |
| Psixoprofilaktik va psixologik ma'rifikat ishlari mazmuni..... | 11 |
| Psixokorreksion trening mashg'ulotlari ishlanmalaridan namunalar..... | 12 |
| Tanishish va birlashish treninglari..... | 12 |
| Xulq-atvor normalariga rioya qilish holatlarini aniqlashga qaratilgan treninglar..... | 16 |
| "Nizoli vaziyatlar korreksiyasi" treninglaridan namunalar..... | 21 |
| Muloqot jarayonini faollashtirishga doir trening mashg'ulotlari..... | 23 |
| Muhitni ijobjiylashtiruvchi va ahillashtiruvchi trening mashg'ulotlari..... | 24 |
| Faoliyatdagi ishchanlik muhitini yaratuvchi trening mashg'ulotlar..... | 25 |
| Psixodiagnostik metodikalar..... | 26 |
| Anketa metodi..... | 26 |
| O'quv motivatsiyasi yo'nalishini aniqlashga qaratilgan test-so'rvnoma..... | 28 |
| "Odamning geometrik shakllar yordamida chizilgan rasmi" metodikasi..... | 31 |
| Sotsiometriya metodikasi..... | 36 |
| Sotsiogramma metodi..... | 38 |
| "Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik moyilliklari diagnostikasi" metodikasi.. | 39 |
| "Qiziqishlar xaritasi" metodikasi..... | 43 |
| Xarakter xususiyatini aniqlashga qaratilgan testlar..... | 51 |
| Psixogeometrik test: "kimsiz: kvadrat, aylana, to'rtburchak, uchburchak, zig-zag?"... 51 | |
| Temperamentni aniqlash testi..... | 54 |
| O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'lif muassasalari agentligi tizimidagi ta'lif muassasalari psixologining lavozim yo'riqnomasi..... | 60 |
| Agentlik tizimidagi ta'lif muassasalari psixologi uchun namunaviy reja..... | 67 |
| Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati..... | 70 |



PREZIDENT TA'LIM
MUASSASALARI
AGENTLIGI

+998 (71) 207-20-17

info@piima.uz

Toshkent shahri, Yashnobod tumani,
Mahtumquli ko'chasi, 1a

PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI